



Xalq so'zi

O'zbekiston —
kelajagi
buyuk
davlat

2025-YIL — ATROF-MUHITNI ASRASH VA "YASHIL" IQTISODIYOT YILI

1991-yil 1-yanvardan chiqa boshlagan

WWW.XS.UZ

E-mail: Info@xs.uz

2025-yil 15-avgust, № 166 (9061)

Juma

Saytimizga o'tish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI FRANSIYA ELCHISINI QABUL QILDI

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 14-avgust kuni mamlakatimizdagi diplomatik missiyasini yakunlayotgan Fransiya Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Oreliya Bushezni qabul qildi.



Davlatimiz rahbari Fransiya elchisining samarali faoliyati hamda mamlakatlarimiz o'rtasidagi strategik sheriklik munosabatlarini rivojlantirish va mustahkamlashga qo'shgan shaxsiy hissasini alohida qayd etdi.

Bo'lib o'tgan oliy darajadagi o'zaro tashriflar O'zbekiston — Fransiya hamkorligini sifat jihatdan yangi bosqichga ko'tarish, uning kun tartibini aniq mazmun bilan boyitishga xizmat qilgani ta'kidlandi.

Turli darajalarda tizimli muloqot va faol aloqalar yo'lga qo'yilgan. Savdo-iqtisodiy sohada sezilarli muvaffaqiyatlarga erishildi: keyingi yillarda tovar ayirboshlash 4 barobar ko'paydi, Fransiyaning yetakchi kompaniya va tashkilotlari bilan umumiy qiymati 10 milliard dollardan ziyod loyihalar amalga oshirilmoqda.

Ta'lim, sog'liqni saqlash va madaniy-gumanitar almashinuv sohalarida muhim dasturlar amalga oshirilmoqda. Luvr muzeyi va Arab dunyosi institutida ko'rgazmalar katta muvaffaqiyat bilan o'tdi.

Parij shahri yaqinida Beruniy haykali ochildi. Fransiya poytaxtidagi ko'chaga Samarqand nomi berildi. Joriy yilda Toshkent shahrida O'zbekiston — Fransiya universiteti o'z ishini boshlaydi.

Uchrashuv yakunida O'zbekiston Prezidenti Fransiya Respublikasining Favqulodda va muxtor elchisi Oreliya Bushezga mamlakatlarimiz o'rtasida do'stlik va strategik sheriklik munosabatlarini mustahkamlashga qo'shgan katta hisssasi uchun "Do'stlik" ordenini topshirdi.

Elchi xonim uning diplomatik missiyasi yuksak baholangani hamda O'zbekiston va Fransiya o'rtasidagi keng ko'lami hamkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo'llab-quvvatlayotgani uchun davlatimiz rahbariga samimiy minnatdorlik bildirdi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Matbuot xizmati surati.

QAYTA ISHLASH QO'SHIMCHA DAROMAD KELTIRADI

Prezident Shavkat Mirziyoyev chiqindilarni qayta ishlashni kengaytirish chora-tadbirlari bo'yicha taqdimot bilan tanishdi.

Yurt obodligi va aholi salomatligida katta o'rin tutadigan bu sohaga zamonaviy yondashuvlar olib kiritilmoqda. Oxirgi uch yilda barcha manbalardan 2 trillion so'mdan ziyod mablag' yo'naltirildi. O'tgan yili Chiqindilarni boshqarish va sirkulyar iqtisodiyotni rivojlantirish agentligi tashkil etildi.

Chiqindi korxonalari uchun 1 ming 200 ta yangi texnika olib berildi. Mahallalarda chiqindi maydonchalari qurildi. To'plash va tashib ketish yaxshilangani natijasida bu tarmoq ikkilamchi xomashyo manbaiga aylandi.

Avvallari davlat monopoliyasida bo'lgan sohada tadbirkorlikka yo'l ochilib, qulay biznes muhiti yaratildi. Jumladan, sanitar-tozalash hamda chiqindini qayta ishlash korxonalari uchun foyda solig'i va ijtimoiy soliq stavkalari 1 foiz etib belgilandi. Chetdan olib kelinadigan texnika va uskunalar import bojidan ozod qilindi. Natijada 200 ga yaqin sanitar-tozalash va 290 ta chiqindini qayta ishlash korxonalari ochildi.

Taqdimotda mutasaddilar sohadagi loyihalarning borishi va galdagi rejarlar haqida axborot berdi.

Yurtimizda yiliga 14 million tonna maishiy chiqindi hosil bo'ladi. Lekin ularni qayta ishlash darajasi past. So'nggi yillardagi loyihalar natijasida bu endi 5 foizga yetdi.

Chiqindini yoqish orqali energiya ishlab

chiqarish loyihalari qo'llab-quvvatlanmoqda. Xitoylik investorlar 6 ta viloyatda shunday zavodlar quryapti. Davlat chiqindi utilitatsiyasi uchun ularga to'lov qilish bilan birga, hosil bo'lgan energiyani sotib olish bo'yicha ham majburiyat o'laypti.

Yaqinda Toshkent shahrida tibbiyot chiqindisini yoqib issiqlik oladigan ikkita korxona ishga tushirildi. Yana Samarqandda 2 ta, qolgan hududlarda bittadan shunday zavodlar qurilishi mo'ljallangan.

Maishiy chiqindilarning to'rtidan biri qog'oz, plastik, rezina, shisha, to'qimachilik qoldiqlariga to'g'ri keladi. Ularni qayta ishlab, 1 trillion so'mlik mahsulot olish mumkinligi aytili. Bundan tashqari, yurtimizda qayta ishlanmaydigan qurilish, kimyo, elektron, texnik va sanoat moylari bo'yicha katta zaxira borligi ko'rsatib o'tildi.

Chiqindini tashib ketish xizmatlari aholini rozi qiladigan darajada bo'lishi kerakligi ta'kidlandi. Shu bois mahallaga chiqindi texnikasining kelish vaqti va harakatini onlayn ko'rish imkoniyatini yaratish vazifasi qo'yildi.

Ijtimoiy muassasalar va mahallalarni chiqindi konteynerlari bilan to'liq ta'minlash bo'yicha ikki yillik dastur ishlab chiqilishi belgilandi. Aholida ekologik madaniyatni bog'cha va maktabdan boshlab shakllantirish muhimligi ta'kidlandi.

O'ZA.

O'zbekiston Respublikasi
Prezidentining
F A R M O N I

O'ZBEKISTONDAGI BIR GURUH FALASTINLIK FUQAROLARGA DAVLAT G'AMXO'RLIGI, MEHR-SHAFAQAT TAMOVILLARI ASOSIDA KO'MAK BERISH TIZIMINI YO'LGA QO'YISH CHORA-TADBIRLARI TO'G'RISIDA

Inson hayoti, sha'ni va qadr-qimmatini ulug'lash, muhtojlarga mehr bilan yondashish, ezgulik va adolat tamoyillariga sodiq qolish dinimiz, madaniyatimiz va an'analimizning ajralmas qismi hisoblanadi.

So'nggi yillarda yurtimizda davlat va jamiyat o'rtasida insonparvarlikka asoslangan munosabatlarni yanada mustahkamlash, ehtiyojmandlarga yordam ko'rsatishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Bu ezgu yo'nalishda yurtimiz har qanday davrlarda o'z bag'rikengligi, mehr-shafqati va insonparvarlik an'analarni namoyon etib kelmoqda. Jumladan, O'zbekistonga olib kelingan falastinlik fuqarolarga (keyingi o'rinlarda — mehmonlarga) boshpana berilishi hamda ko'mak ko'rsatilishi xalqimizning asrlar davomida shakllangan qadriyatlariga sodiqligi va davlatimizning haqiqiy insonparvarlik siyosati amalda ifoda bo'layotganidan dalolat bermoqda.

Mehmonlarga adolat tamoyili asosida doimiy g'amxo'rlik va ijtimoiy ko'mak ko'rsatishni ta'minlaydigan mexanizmlarni joriy etish maqsadida **qaror qilaman:**

I. Mehmonlar ijtimoiylashuvini ta'minlash

1. Mehmonlar uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida quyidagi ishlar bajarilgan ma'lumotini ushuni qabul qilinsin:

a) mehmonlarni vaqtincha yashash obyektlariga joylashtirish, ularning birlamchi ehtiyojlari yuzasidan masalalar hal etildi;

b) mehmonlarni tibbiy ko'rikdan o'tkazish va zarur dori-darmonlar bilan ta'minlash choralari ko'rildi;

v) mehmonlarning jamiyatga integratsiya qilinishi va ma'naviy qo'llab-quvvatlanishini ta'minlash maqsadida madaniy-ma'rifiy uchrashuvlar va do'stlik kechalari kabi tadbirlarni (shu jumladan, bolalar uchun) o'z ichiga oluvchi maxsus dasturlar tashkil etildi.

II. Mehmonlarni jamiyatga integratsiya qilish ishlarini jadallashtirish

2. Falastinlik bemorlar va ularga hamrohlik qiluvchilarni O'zbekiston Respublikasida yashashga moslashtirish jarayoniga ko'maklashish bo'yicha Respublika komissiyasi (keyingi o'rinlarda — Respublika komissiyasi) tarkibi **1-ilovaga** muvofiq tasdiqlansin.

3. Quyidagilar Respublika komissiyasining **asosiy faoliyat yo'nalishlari** etib belgilansin:

a) mehmonlarga yaratilgan imkoniyatlarni ro'yogba chiqarish yuzasidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatini muvofiqashtirish;

(Davomi 2-betda).



BEPARVOLIK VA QONUNBUZARLIK — JINOYATCHILIKNING BOSH OMILI

Kecha Namangan viloyatining Pop tumanida Oliy Majlis Senati Raisi Tanzila Norboyeva boshchiligidagi Korruptsiyaga qarshi kurashish bo'yicha milliy kengashning sayyor majlisi bo'lib o'tdi.

Sayyor majlis

Namangan viloyatida kriminogen vaziyatni barqarorlashtirish hamda korruptsiyaga qarshi kurashish borasidagi ishlar holati ko'rib chiqilgan majlisda milliy va hududiy kengashlarning a'zolari, senatorlar, xalq deputatlari viloyat, shahar va tuman

Kengashlari deputatlari, vazirlik hamda idoralar rahbarlari, faollar ishtirok etdi.

Ta'kidlanganidek, bugungi kunda viloyatning iqtisodiy salohiyati yuqori bo'lib, mehnatga layoqatli aholining 82 foizi kichik biznes va tadbirkorlik sohasida band. Joriy yilda 4 mlrd. dollar miqdorida

investitsiyalar jalb qilish, 1 mlrd. dollarlik eksport, 323 ming ish o'rni yaratish va 55 ming oilani kambag'allikdan chiqarish rejalashtirilgan.

Jinoyatchilikka oid ko'rsatkichlar ham tahlil qilindi. 2024-yilda viloyatda jami 8 204 ta jinoyat qayd etilgan. Ularning 35 foizi kiberjinoyatlardir. Joriy yilning yetti oyida esa 5 786 ta jinoyat sodir qilingan, shundan 45,6 foiz kiberjinoyatlar hisoblanadi. Qonunbuzilishlarning katta qismi oldi olinishi mumkin bo'lgan turkumga kiradi.



ADLIYA VAZIRINING AXBOROTI ESHITILDI

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining navbatdagi "Hukumat soati" bo'lib o'tdi. Unda qonunchilik hujjatlarini sifatli tayyorlash hamda norma ijodkorligi faoliyatini takomillashtirish borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risidagi masala muhokama qilindi.

"Hukumat soati"

Kun tartibidagi masala yuzasidan deputatlarning savollariga adliya vaziri Akbar Toshqulov javob berdi.

Qayd etilganidek, yangi O'zbekistonning qonunchilik bazasi islohotlarga hamohang tarzda yuqori sur'atlarda qilingan moqda. Hozirgi kunda normativ-huquqiy hujjatlar fondi 26 mingdan ortiq hujjatlarni o'z ichiga oladi, shundan 17 mingga yaqini yoki 65 foizi oxirgi 8 yilda qabul qilingan.

Xususan, 2016-yilga qadar har yili 15 — 20 ta qonun qabul qilingan bo'lsa, 2024-yilda bu raqam 125 taga yetgan. Bu — 5 baravar o'sish degani. Bunday dinamika faqat qonunlar sonining ortishi bilan emas, balki islohotlar huquqiy jihatdan kompleks ta'minlanishi, sohaviy o'zgarishlarning tezkor va maqsadli huquqiy asoslar bilan mustahkamlanayotganini ko'rsatadi. Bunday sharoitda Qonunchilik palatasiga kiritilayotgan qonun loyihalarining sifati ishlab chiqilishiga erishish muhim ahamiyatga ega. Shu nuqtayi nazardan, xalq vakillari qonun loyihalarining quyil palataga sifati va o'z

vaqtda kiritilishi, qonunchilik texnikasi qoidalariga muvofiqligi, huquqiy va korruptsiyaga qarshi ekspertizalardan o'tkazilish holati borasida amalga oshirilayotgan ishlar to'g'risida vazirlik mas'ullaridan izoh so'radi.

Ta'kidlanganidek, ayrim qonun loyihalarining palatagacha yetarli darajada sifatli tayyorlanmagan holda kiritilishi Adliya vazirligining huquqiy ekspertiza sohasidagi faoliyatini yanada takomillashtirish zarurligini ko'rsatmoqda. O'z o'rnida vazirlik va idoralarda ham norma ijodkorligi borasidagi ko'nikma va mas'uliyat darajasi hamon yetarli emas.

Bu, ayniqsa, Adliya vazirligiga huquqiy ekspertiza uchun taqdim etilayotgan qonun loyihalarining sifat darajasi pastligi mezonida yaqqol namoyon bo'lmoqda. Misol uchun, vazirlik tomonidan oxirgi bir yarim yilda 355 ta qonun loyihasi huquqiy ekspertizadan o'tkazilgan. Ularning 68 tasi (19 foizi)ni qabul qilish maqsadga muvofiq emasligi to'g'risida xulosa berilib, vakolatlari organlarga kiritilishining oldi olingan.



EKSPORT UCHUN IMPORT QILINAYOTGAN PAXTA


O'zbekistonning jahon to'qimachilik bozoridagi strategiyasi

Keyingi paytlarda O'zbekiston o'zining yirik ishlab chiqarish hajmlariga qaramay AQSHdan paxta xarid qilishi mumkinligi haqidagi xabar keng muhokama etilmoqda. Bu holat ajablanarli tuyuladi. Sababi mamlakat an'anaviy paxta eksportchisi bo'lib kelgan. Lekin bu yerda gap O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlarining jahonning premium bozorlaridagi mavqeiini mustahkamlashga qaratilgan strategik qadam haqida ketmoqda.

Dolzarb mavzu

To'qimachilik sanoatining jadal o'sishi

So'nggi yillarda O'zbekiston to'qimachilik sanoatida katta ijobiy o'zgarishlar ro'y berdi. 2017-yildan buyon kalava ip ishlab chiqarish hajmi 412 ming tonnadan 970 ming tonnagacha, trikotaj mato bo'yicha o'sish 68 ming tonnadan 312 ming tonnagacha, tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarish esa 960 mln. donadan 3,1 mlrd. donagacha oshdi. Bu ko'rsatkichlar mamlakat ichida paxtani chuqur qayta ishlash



va tayyor mahsulot eksportini rag'batlantirish siyosati natijasidir.

Haqiqatan ham, agar 2016-yilda O'zbekiston to'qimachilik mahsulotlari eksporti qariyb 1,1 mlrd. AQSH dollarini tashkil qilgan bo'lsa, 2024-yilga kelib bu ko'rsatkich 2,8 mlrd. dollarga yetdi. Bu esa tarmoqning xalqaro bozorlardagi raqobatbardoshligi

oshganidan dalolat beradi.

Bugungi kunda O'zbekistonda yetishtirilgan paxta hosili to'liq mahalliy korxonalarda qayta ishlanib, paxta tolasini o'zimizda qayta ishlash darajasi 100 foizga yetgan. O'zbekiston to'qimachilik fabrikalarining mahsulotlari hozirda 75 dan ortiq mamlakatga eksport qilinmoqda.





ERISHILGAN YUTUQLAR KOʻP, MUAMMOLAR HAM YOʻQ EMAS

Ona tabiatni,atrof-muhitni asrab-avaylash barchamizning asosiy burchimiz. Chunki havo,ekologik muhit buzilsa,nafaqat insonga,balki yer,suv,oʻsimliklar va hayvonot dunyosiga zarar yetib ifloslanadi,zararlanadi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi joriy yilning olti oyida asosiy eʼtiborni atrof-muhit muhofazasi,ekologiya sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil etish,hayvonot va oʻsimlik dunyosi himoyasini kuchaytirishda yagona yondashuvni taʼminlashga alohida eʼtibor qaratdi.

Tahlil

Hisobot davrida qoʻmitamiz qonun ijodkorligi yoʻnalishida jami 7 ta qonun loyihasi uchun masʼul boʻldi. Shundan 6 tasi qabul qilingan boʻlsa, bittasi ikkinchi oʻqish muhokamasiga tayyorlanmoqda. Aholining madaniy hordiq va dam olish maskanlari muhofazasini kuchaytirish, qurilishda chang va qum zarrachalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etish, yer osti suv resurslari himoyasi, uni tejashga qaratilgan va boshqa hujjatlar shular jumlasidandir.

Xususan, birgina “Yer uchastkalaridan foydalanish tartibi yanada takomillashtirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirish va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun aholining madaniy hordiq chiqarish maskanlari muhofazasini kuchaytirishga qaratilgan muhim huquqiy asos boʻldi.

Hujjat bilan davlat mulki boʻlgan hamda aholining madaniy-maishiy ehtiyojlarini qondirish va dam olishi uchun foydalaniladigan yerlarni yoki ularning bir qismini xususiylashtirish yoxud boshqacha tarzda begonalashtirish taqiqlandi. Ushbu yerlarda binolar va inshootlar qurish yoki mavjudlarining qurilish maydonlarini kengaytirish, ushbu yerlarning hududini qisqartirishni taqiqlash belgilandi.

“Qurilish maydonlarida chang va qum zarrachalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etishga doir majburiy talablar belgilanishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksiga qoʻshimchalar va oʻzgartirish kiritish haqida”gi qonun ham bu boradagi muammolarning oldini olishga qaratilgani bilan ahamiyatlidir.

U bilan Maʼmuriy javobgarlik toʻgʻrisidagi kodeksga qurilish maydonlarida atmosfera havosini muhofaza etish talablariga rioya

qilmaganlik uchun javobgarlikni belgilovchi qoʻshimchalar va oʻzgartirish kiritildi. Hujjat fuqarolarning oʻz hayoti va sogʻligʻi uchun qulay atmosfera havosidan foydalanish huquqlarini taʼminlash, tartibsiz ravishda tashlanadigan chang va qum zarrachalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etishga xizmat qilmoqda.

Qonun loyihalarining har jihatdan pishiq, mukammal boʻlishini taʼminlashda qoʻmitalar huzuridagi ekspertlar, jamoatchilik kengashi

Nazorat-tahlil faoliyati ham doimiy eʼtibor markazimizda boʻlib, oʻtgan vaqt mobaynida 7 ta parlament nazorati tadbiri amalga oshirildi. Jumladan, davlat organlari rahbarlarining 6 marotaba axboroti eshitildi. Masalan, Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim oʻzgarishi vazirligi, Davlat ekologik nazorati inspeksiyasi, qurilish va kommunal xizmat sohaslariga daxldor vazirliklar ishtirokidagi yigʻilishlarda ularning faoliyati muhokama qilindi.

“ Hisobot davrida qoʻmitamiz qonun ijodkorligi yoʻnalishida jami 7 ta qonun loyihasi uchun masʼul boʻldi. Shundan 6 tasi qabul qilingan boʻlsa, bittasi ikkinchi oʻqish muhokamasiga tayyorlanmoqda. Aholining madaniy hordiq va dam olish maskanlari muhofazasini kuchaytirish, qurilishda chang va qum zarrachalarining havoga koʻtarilishini bartaraf etish, yer osti suv resurslari himoyasi, uni tejashga qaratilgan va boshqa hujjatlar shular jumlasidandir.

va ishchi guruhlar faol ishtirok etdi. Hisobot davrida 37 ta ishchi guruh, 2 ta jamoatchilik kengashi yigʻilishi oʻtkazildi.

Qoʻmitaning ilmiy-tadqiqot va tahlil markazlari bilan hamkorligini samarali yoʻlga qoʻyishga ham alohida eʼtibor qaratildi. Mazkur tashkilotlar bilan 9 ta memorandum imzolaniib, ularni amalga oshirish boʻyicha qoʻshma chora-tadbirlar rejayi tasdiqlandi.

Jismoniy va yuridik shaxslarning murojaatlarini oʻz vaqtida oʻrganish, ularni hal etish, saylovchilar bilan tizimli ish olib borishga ham katta ahamiyat berildi. Shu davrda 83 ta murojaat koʻrib chiqilib, ularning salmoqli qismiga ijobiy yechim topildi.

Shu bilan birga, fuqarolar murojaatlarida koʻtarilgan muammolarni bevosita joyiga chiqqan holda oʻrganish va ularni

ijobiy hal qilish choralari koʻrildi. Natijada koʻplab murojaatlar bartaraf etilishiga erishildi. Jumladan, Fargʻona shahrida chiqindi tashlash joyi yetishmasligi muammosi hal boʻldi. Uchkoʻprik tumanidagi gʻisht zavodi esa zararli chiqindilarga qarshi uskunalar bilan jihozlandi.

Hisobot davrida qonun hujjatlarini takomillashtirish boʻyicha ham murojaatlar kelib tushdi. Xususan, “Ov qilish va ovchilik xoʻjaligi toʻgʻrisida”gi Qonunga oʻzgartirish kiritish taklifi bildirildi. Mazkur taklif qoʻmitada murojaatchi ishtirokida koʻrib chiqilib, uning fikrlarini kelgusidagi qonunchilik faoliyatida inobatga olishga kelishib olindi.

Qoʻmitamizning 2025-yil birinchi yarim yillikdagi faoliyati ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish sohasida tizimli yondashuv, samarali parlament nazorati va xalq bilan ochiq muloqot asosida olib borildi. Kelgusida ham amaldagi qonunchilikni hayotiy ehtiyojlarga moslashtirishga, aholining ekologik huquqlarini taʼminlashga jiddiy eʼtibor qaratamiz va bu oldimizda turgan eng asosiy vazifalardan biri boʻlib qoladi.

Xayrullo GʻAFFOROV,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasining
Ekologiya va atrof-muhitni muhofaza qilish masalalari qoʻmitasi raisi.

YANGI TUZILMA – YANGI IMKONIYATLAR

Davlatimiz rahbari shu yil 13-avgust kuni boʻlib oʻtgan videoselektor yigʻilishida toʻqimachilik sohasini rivojlantirish uchun koʻplab imtiyoz va imkoniyatlarni eʼlon qildi. Bu shart-sharoitlar,eng avvalo,sohada toʻplanib qolgan ayrim muammolarni tizimli hal etadi. Prezidentimiz tomonidan ilgari surilgan muhim tashabbuslar nihoyatda zarur uchta masalani yechayotganiga eʼtibor qaratmoqchimiz.

Munosabat

Birinchisi, mahsulot yetishtiruvchidan to eksport qiluvchigacha boʻlgan halqa oʻrtasidagi munosabatlar yanada soddalashtirilmoqda.

Ikkinchisi, endi Yengil sanoatni rivojlantirish agentligi toʻqimachilik, charm va ipak sanoati taraqqiyotiga masʼul boʻladi. Uchinchisi, hududlarda yirik sanoat korxonalarining filiallari ochilishi bilan minglab yangi ish oʻrinlari yaratiladi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasida shu kunlarda sanoatning mazkur yetakchi tarmogʻini qoʻllab-quvvatlashning yangi tizimi qizgʻin muhokama qilinmoqda. Albatta, deputatlar bu borada natijadorlikni taʼminlashda faol boʻladi. Hududlardagi uchrashuvlarimizda muammolarni hal etishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar koʻramiz. Sohaning huquqiy asoslarini yanada takomillashtirish boʻyicha aniq takliflar ham beramiz.

Taʼkidlash kerak, alohida jamgʻarma orqali toʻqimachilik korxonalariga arzon aylanma mablagʻ ajratilishi, ayniqsa, kichik va oʻrta biznes uchun keng imkoniyatlar yaratadi. “Bojxona hududida qayta ishlash” rejimi esa tayyor mahsulot eksportini ikki barobar oshirishga xizmat qiladi.

Nargiza SALOMOVA,
Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputati.



ADLIYA VAZIRINING AXBOROTI ESHITILDI

1 Ayrim holatlarda masʼul idoralar tomonidan Adliya vazirligining huquqiy ekspertiza xulosasida bildirilgan, shuningdek, boshqa vakolatli organlarning idoraviy kelishuv jarayonida bildirgan asosli eʼtirozlari toʻliq bartaraf qilinmasdan, loyihalar vakolatli organlarga kiritilmoqda. Natijada ular qayta ishlanib, eʼtirozlar bilan dastlabki bosqichga – ishlab chiquvchilarga qaytarilmoqda. Oqibatda ayrim muhim loyihalar Qonunchilik palatasiga kechikib kiritilmoqda. Qonunchilik palatasi qonun loyihalarini qaytarish huquqidan foydalanmasdan, loyihalarini bevosita palatada qayta ishlashga majbur boʻlmoqda. Deputatlarning saʼy-harakati bilan koʻplab qonunlar mazmunan boyitilib, huquqiy jihatdan maromiga yetkazilmoqda.

Nafaqat qonun loyihalarini, balki barcha turdagi qonunchilik hujjatlari loyihalarini sifatini taʼminlovchi yana bir mexanizm – korruptsiyaga qarshi ekspertiza hisoblanadi.

Korruptsiyaga qarshi ekspertiza boʻyicha maxsus qonun asosida amaldagi hujjatlarni ham korruptsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazish tizimi yaratildi, davlat organlariga aniq vazifa va vakolatlar berildi.

“ Oʻtgan davrda vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan 110 ta qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilgan. Statistika koʻra, har oyda oʻrtacha 1000 odam jamoatchilik muhokamasida ishtirok etadi va loyihalar bilan tanishadi. Soʻnggi bir yilda jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilgan qonunchilik hujjatlari boʻyicha 852 ta taklif bildirilgan.

Huquq ustuvorligini taʼminlashda qonunlarning amalga samarali tatbiq etilishi muhim ahamiyatga ega. Shu maqsadda qonunning KPIni hisoblash yoʻlga qoʻyildi. Bu tizim qonun ishlashi uchun zarur huquqiy baza, moliyaviy va moddiy-texnik hamda inson resurslari mavjudligini, huquqiy normalarning sifatli amalga oshirilishini va maqsadlariga qay darajada erishilayotganini kuzatish, shuningdek, oʻz vaqtida boʻshliqlarni aniqlab, tegishli chora koʻrish imkonini bermoqda.

Yigʻilishda qonunchilik hujjatlari loyihalarini ishlab chiqadigan vazirlik va idoralardagi yuridik xizmatlar xodimlarining bilim hamda saviyasini, shu jumladan, norma ijodkorligi boʻyicha koʻnikmalarini doimiy ravishda oshirib borishga qaratilgan ishlar boʻyicha ham toʻxtalib oʻtiladi.

Vazirning qayd etishicha, oʻtgan davrda yuridik xizmat xodimlarining norma ijodkorligi, xususan, tartibga solish taʼsirini baholash, huquqiy va korruptsiyaga qarshi ekspertizadan oʻtkazish, qonunlarni Oliy Majlis Qonunchilik palatasiga kiritishda reglament talablariga rioya qilish masalalariga bagʻishlangan bir qator konferensiya va seminarlar tashkil etilgan.

Milliy qonunchilikni tizimlashtirish jarayoniga Yevropa Ittifoqining ikki yillik xalqaro hamkorlik dasturi (granti) tatbiq qilingan. Hamkorlik doirasida yuqori malakali ekspertlar jalb etilib, qonunchilik sohasini tizimlashtirishga masʼul boʻlgan vazirlik va idoralar mutaxassislarining koʻnikmasi oshirilgan.

“Hukumat soati”da deputatlar qonun loyihalarini ishlab chiqish va qabul qilish jarayonida jamoatchilik muhokamasi institutidan samarali foydalanish masalasiga ham alohida eʼtibor qaratdi. Bu borada amalga oshirilayotgan ishlar holati bilan qiziqishdi.

Aytilganidek, oʻtgan davrda vazirlik va idoralar tomonidan ishlab chiqilgan 110 ta qonun loyihasi jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilgan. Statistika koʻra, har oyda oʻrtacha 1000 odam jamoatchilik muhokamasida ishtirok etadi va loyihalar bilan tanishadi. Soʻnggi bir yilda jamoatchilik muhokamasiga joylashtirilgan qonunchilik hujjatlari boʻyicha 852 ta taklif bildirilgan.

“Regulation.gov.uz” portalida jamoatchilik muhokamasi davomida berilgan taklif va eʼtirozlarni vazirlik hamda idoralar tomonidan majburiy ravishda koʻrib chiqish va munosabat bildirish, shuningdek, loyihaning jamoatchilik muhokamasi yakunlangach, ularni koʻrib chiqish jadvalini bevosita hamma koʻrishi uchun eʼlon qilish kabi qoʻshimcha imkoniyatlar yaratilgan.

Bundan tashqari, vazirlik tomonidan norma ijodkorligi jarayonlari raqamlashtirilib, sunʼiy intellekt texnologiyalarining faol integratsiyasi taʼminlanmoqda. Shu maqsadda “project.gov.uz” portalining yangi talqini ishga tushirilgan. Qonunlarni qabul qilish uchun zarur boʻlgan jarayonlarni amalga oshirish maqsadida alohida “project.gov.uz” tizimi bilan toʻliq integratsiyalashgan “Ye-QONUN” tizimi ishlab chiqilmoqda.

Muhokamada deputatlar tomonidan qonun ijodkorligi sohasida sunʼiy intellekt texnologiyalarini joriy etishda zarur shart-sharoitlarni taʼminlash, vazirlikning huquqiy ekspertiza xulosasi taʼsirchanligini oshirish, normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini ishlab chiqish jarayonida olimlar, ekspertlar hamjamiyati salohiyatidan unumli foydalanish mexanizmlarini yaratish hamda qonun loyihalarini jamoatchilik muhokamasidan oʻtkazmasdan kiritilishining oldini olish boʻyicha koʻrilayotgan chora-tadbirlar haqida tushuntirish soʻraldi. Koʻtarilgan masalalar yuzasidan bir qator taklif va tavsiyalar ilgari surildi.

Yigʻilish yakunida kun tartibidagi masala boʻyicha faol hamkorlik qilish va samarali parlament nazoratini taʼminlashga kelishib olindi.

Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi Oʻzbekiston Respublikasi Advokatlar palatasi bilan hamkorlikda advokatlar bilan ochiq muloqot oʻtkazdi.

Unda deputatlar,olimler,advokatlar,Adliya vazirligi,prokuratura, sud va tergov organlari vakillari ishtirok etdi.

Ochiq parlament

Demokratik huquqiy davlat va adolati fuqarolik jamiyatida esa advokatura instituti alohida oʻrin tutadi.

Soʻnggi yillarda mamlakatimizda advokatura institutini takomillashtirish, uning huquqiy poydevorini mustahkamlash boʻyicha

keng koʻlamli chora-tadbirlar amalga oshirildi. Advokatura toʻgʻrisidagi qonunchilik hujjatlariga kiritilgan oʻzgartirishlar bu sohada tub islohotlarni boshlab berdi.

Mazkur sohadagi jadal islohotlar natijasida yurtimizda advokatura

Dildora KAMOLOVA,
Korruptsiyaga qarshi kurashish va sud-huquq masalalari qoʻmitasi raisi oʻrinbosari:

– Har bir insonning oʻz huquq va erkinliklarini roʻyobga chiqarishi, himoya qilishi uchun yuridik koʻmak olishida advokatura institutining oʻrni katta. Demak, ular erkin faoliyat yuritishida sohaning huquqiy asoslarini takomillashtirish juda muhim ahamiyatga ega.

“Advokatlik faoliyatining kafolatlari kuchaytirilishi munosabati bilan Oʻzbekiston Respublikasining ayrim qonun hujjatlariga oʻzgartirishlar va qoʻshimchalar kiritish toʻgʻrisida”gi qonun loyihasi ayni shu maqsadda ishlab chiqildi.

Ushbu hujjat advokatlarining ijtimoiy va mulkiy huquqlarini samarali taʼminlash, jismoniy va yuridik shaxslarga malakali yuridik yordam koʻrsatish tizimini rivojlantirish uchun yanada qulay sharoitlar yaratishga xizmat qilishi bilan ahamiyatlidir.

Soha vakillari bilan muloqotimiz mobaynida mazkur loyiha yuzasidan fikr almashdik, hujjat matnini yanada takomillashtirish boʻyicha muhim takliflar oldik. Bu esa loyihaning xalqchil boʻlishiga, fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilishda advokatura institutining oʻrni va rolini yanada oshirishga keng yoʻl ochadi.

Ilyos YUSUPOV,
Advokatlar palatasi Toshkent viloyati hududiy boshqarmasi boshligʻi:

– Ilgari fuqarolarning tergov va sud ishini yuritishning har qanday bosqichida malakali yuridik yordam olish huquqini mustahkamlaydigan konstitutsiyaviy norma yoʻqligi advokaturaning toʻliq mustaqilligini taʼminlash, kafolatlash, kasbiy obroʻsi va nufuzini oshirishga monelik qilardi.

Yangi tahrirdagi Konstitutsiyamizda advokatlar toʻgʻrisida alohida bob kiritilishi tarixiy muhim ahamiyat kasb etdi.

Deputatlar bilan ochiq muloqot davomida faoliyatimizni yanada takomillashtirishga oid bir qator

Murtazo ODILOV,
“Odil adolat ustuni” advokatlik byurosi rahbari:

– Advokatlik instituti inson huquqlarini taʼminlashning eng muhim kafolatlaridan biri. Oxirgi yillarda kasbiy faoliyatimizni muvaffaqiyatli amalga oshirishimiz uchun zarur qonunchilik bazasi shakllandi. Ammo hali yechimini kutayotgan masalalar, muammolar ham mavjud.

Mazkur qonun loyihasi mamlakatimizda advokatura va advokatlik faoliyatini tubdan takomillashtirish, inson huquq va erkinliklarini taʼminlashga qaratilgani bilan nafaqat soha vakillarining, balki keng jamoatchilikning eʼtiborini ham tortmoqda.

Ayniqsa, advokatura instituti tarkibiga yosh kadrlarni jalb qilish

fuqarolar va tashkilotlarga malakali yuridik yordam koʻrsata oladigan, ijtimoiy ahamiyatli – maxsus huquq layoqati mujassam institut sifatida oʻz oʻrniga ega boʻlmoqda.

Ochiq muloqotda advokatlarining ish jarayonida uchrayotgan muammolarni bartaraf etish boʻyicha qonunchilikni takomillashtirishga oid amaliy taklif va tavsiyalar muhokama qilindi.

Uchrashuvda advokatlar faoliyatini yanada takomillashtirish va sohadagi ayrim toʻsiqlarni bartaraf etish boʻyicha chora-tadbirlar ishlab chiqishga kelishib olindi.

masalalar yuzasidan fikr almashdik. Qonun loyihasi boʻyicha oʻz takliflarimizni, nuqtayi nazarimizni ham bildiririk.

Loyihada advokatlarining kasbiy faoliyatlarini amalga oshirishiga sharoit yaratish maqsadida advokat soʻrovi boʻyicha advokatning malakali yuridik yordam koʻrsatishi uchun zarur boʻlgan axborotlar (hujjatlar)ni bepul olish imkoniyatini kafolatlash alohida ahamiyat kasb etadi. Bunday uchrashuvlarimiz qancha koʻproq boʻlsa, natija ham shunga yarasha boʻladi.

maqsadida advokat boʻlish istagini bildirgan shaxslar uchun yuridik mutaxassislik boʻyicha ikki yillik ish staji mavjudligi toʻgʻrisidagi talabni bekor qilish taklif etilayotgani biz, soha vakillarini nihoyatda xursand qiladi.

Xalq vakillari bilan boʻlib oʻtgan muloqotimiz nafaqat muammolarni ochiq muhokama etish, balki ular yuzasidan aniq yechimlar boʻyicha fikr almashish uchun muhim platforma boʻldi. Zotan, ana shunday ochiqlik hamda munozaralarda koʻtarilgan takliflar qonun loyihalarini huquqiy va amaliy jihatdan puxta boʻlishiga xizmat qiladi.

“Xalq soʻzi”.

IJTIMOIY ADOLATNING HAYOTIY MANZARALARI

Adolat tamomila “koʻtarilib” Vatan,xalq kelajagi istibdod iskanjasida qolgan rutubatli bir davrda millatning vijdoni sifatida maydonga chiqqan maʼrifatparvar bobomiz Abdulla Avloniy uning ahamiyatini quyidagicha izohlagan: “har bir millatning taraqqiy va taoliysi,davlat va hukumatlarning uzun yashamogʻi adolatga bogʻlidir”.

Hazrati sohibqiron Amir Temur bobomiz Oqsaroy peshtoqiga “Adolat – davlatning asosi va hukmdorlar shioidir”, degan hikmatli soʻzlarni bejiz yozdirmaganini,aynan adolat yangi Oʻzbekistondagi ulugʻvor gʻoya – inson qadr-qimmatini oliy darajaga koʻtarish borasidagi amaliy harakatlarimiz poydevoriga aylanganini davlatimiz rahbari alohida taʼkidlagan edi. Albatta,bunda juda chuqur maʼno bor...

Nuqtai nazar



Inson, uning huquq va manfaatlarini roʻyobga chiqarish, odamlarning hayotdan rozi boʻlib yashashini taʼminlash borasida amalga oshirilayotgan tizimli islohotlar samarasi nafaqat jamiyatimiz aʼzolari, balki xalqaro hamjamiyatning ham haqli eʼtirofiga sazovor boʻlmoqda.

Mamlakatimizda “Obod qishloq”, “Obod mahalla” dasturlari hamda “temir daftar”, “ayollar daftar” va “yoshlar daftar” asosida olib borilgan ishlar oʻz samarasini berib, pirovard natijada aholining turmush sharoitlari yaxshilangani, yolgʻiz insonlar, keksa va nogironligi borlar, ayollar va yoshlar bilan bogʻliq juda koʻplab ijtimoiy muammolar oʻz yechimini topganligi, qisqacha aytganda, insonga munosabat oʻzgarganligi hech kimga sir emas.

Avvalo, insonlarning shaxsiy huquq va manfaatlarini taʼminlash maqsadida ularning yashash sharoitlarini yaxshilash, muntazam elektr energiyasi va ichimlik suvi hamda uy-joy bilan taʼminlash borasida misli koʻrilmagan ishlar amalga oshirildi: millionlab yangi uy-joylar tiklandi, quvurlar yotqizildi, elektr tarmoqlari, transformatorlar yangilandi. Shuningdek, “Obod mahalla” dasturi asosida mahallalarga fayz kirdi – minglab kilometr ichki yoʻllar, odamlarning uylari taʼmirlandi, madaniy dam olish maskanlari barpo etildi. Kambagʻallikka barham berish borasidagi ishlar natijasida ekin yerlari, katta miqdordagi imtiyozli shartlarda kredit mablagʻlari ajratib berildi.

Oʻrta va oliy taʼlim tizimida yoshlarning bilim olishi va kasb egallashini taʼminlashga qaratilgan katta islohotlar amalga oshirildi. Maktabni tugatgan yoshlarning oliy maʼlumot olish huquqini taʼminlash maqsadida yangi oliy oʻquv yurtlari, koʻplab

institut va universitetlar ish boshladi. Ayni paytda bolalar huquqini himoya qilish, ularga munosib sharoit yaratish maqsadida respublikaning barcha hududida yangi bogʻcha va maktablar ishga tushirildi, bolalar mehnatidan foydalanishga butkul barham berildi.

Jamiyatimizning ertangi kuni, porloq kelajagini taʼminlashning eng muhim omillaridan biri boʻlgan xotin-qizlar huquqini himoya qilish, ularning oliy taʼlim olishiga shart-sharoit yaratish va jamiyat hayotidagi ishtirokini oshirishga alohida eʼtibor qaratildi va bu bugun oʻz samarasini bermoqda.

Mohiyatan qaraganda, davlat oʻzining birlamchi vazifasini bajarmoqda. Biroq yuqorida “dengizdan bir tomchi” sifatida keltirib oʻtilgan amaliy ishlar shunchaki, oʻz-oʻzidan amalga oshmasligini ham yodda tutishimiz lozim.

“Qora roʻyxat” bekor qilindi

Huquqiy sohadagi islohotlar ham zalvarli. Xususan, aybsizlik prezumpsiyasini amalga taʼminlash

borasida muhim ishlar qilindi. Muqaddam ogʻir, oʻta ogʻir jinoyatlarni sodir etishda ayblangan koʻplab odamlar oqlandi, yana ming-minglab jazo oʻtayotgan mahkumlar muddatidan oldin ozod qilindi, davlat rahbari tomonidan afv etildi.

Shuningdek, amaldagi qonunlarimizga zid ravishda davlatimiz hududidan chiqib ketgan ayollar va bolalar urush oʻchogʻi – Suriyadan yurtga olib kelinib, ularning sogʻligʻini tiklash, shart-sharoit yaratish choralarini koʻrildi. Fuqarolarning tergov va sud idoralaridagi ortiqcha sansalorligining oldini olish borasida tergov va qamoqda ushlab turish muddatlari qisqartirildi, tergovga qaytarish instituti bekor qilindi. Ularining konstitutsiyaviy huquqlarini taʼminlash borasida ilk marotaba Oʻzbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi normalarini toʻgʻridan-toʻgʻri qoʻllash joriy etildi. Mehnat huquqlarini himoya qilish, munosib mehnat sharoitlarini yaratish borasida katta saʼy-harakatlar amalga oshirildi, nafaqa yoshida ishlayotganlarga nafaqa va ish haqi toʻliq toʻlanadigan boʻldi. Ana shu ishlarning barchasi jamiyatda adolat oʻrnatilishining bir koʻrinishidir.

Bugungi kunda jinoyatdan jabr koʻrganlarni himoya qilish, ularga yetkazilgan zararlarni qoplanishini taʼminlashga alohida eʼtibor qaratilayotgani, ayrim hollarda jabrlanganlarga davlat tomonidan moddiy yordam koʻrsatilayotgani, hatto zarar davlat hisobidan toʻlab berilayotgani ham adolatdandir.

Jinoyat sodir etgan shaxsni jazolashdan koʻzlangan maqsad unga jismoniy azob berish, ruhiy qiynoqqa solish yoki uning hayotiga nuqta qoʻyish emas, balki

tarbiyalashdan iborat. Hatto oʻlim jazosi ham jinoyatchilikni kamaytirishga olib kelmagisi xorijiy davlatlar amaliyotidan maʼlum.

Yaqin-yaqinlargacha ming-minglab fuqarolarimiz turli diniy oqim aʼzosi sifatida “qora roʻyxat”larga tirkalgan, bir qismi tergov va sud idoralaridan qochib yashirilib yurgan boʻlsa, bugungi kunda mazkur holatlarga toʻliq barham berildi, jinoyat ishlari tugatildi, qidiruvlar bekor qilindi.

Ijtimoiy adolatga mutlaqo zid boʻlgan amaliyot – yaqin qarindoshlari sudlanganligi uchun fuqarolarni ishga qabul qilmaslik yoki yuqori lavozimlarga tayinlamaslik bilan bogʻliq masalaga barham berildi. Garchi qonunlarimizda belgilanmagan boʻlsa-da, lekin rioya etilishi shart boʻlgan bunday noqonuniy talablarga koʻplab vatandoshlarimiz duch kelgan va oqibatda qanchadan-qancha insonlarning taqdiri oʻzgarib ketganligi barchaga maʼlum. Oila aʼzolaridan biron kishi sudlansa,

Javobgarlik hissining zalvari

Davlatimiz rahbari Oliy Majlisa Murojaatnomalarida “**Sud ostonasiga qadam qoʻygan har bir inson, Oʻzbekistonda adolat hukm surayotganiga toʻla ishonch hosil qilishi kerak**”, deb taʼkidlagani bugun odil sudlov tizimi oldiga qoʻyilgan katta vazifadir.

Sudlarning amalda mustaqilligini taʼminlash borasida keng koʻlamli islohotlar amalga oshirildi, xususan moddiy-texnika bazasi yangilandi, sudyalarning ijtimoiy muhofazasi kuchaytirildi.

Fuqarolar va davlat nazorat idoralari, hokimliklar oʻrtasida yuzaga kelgan nizoli munosabatlarni koʻrishga ixtisoslashgan maʼmuriy sudlar faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Qoʻshimcha sudyalik shtatlari berildi.

Gumonlanuvchi va ayblanuvchiga nisbatan ehtiyoj chorasini qoʻllash tergov organlaridan sudlar vakolatiga oʻtkazilib, ushbu masala yopiq eshiklar ortida emas,

“**Jismoniy va yuridik shaxslar oʻz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarini tiklash borasida, asosan, sudlarga murojaat etadi va ularning oʻz vaqtida, protsessual tartiblarga toʻla amal qilingan holda qonuniy va adolatli hal etilishi jamiyatda adolat barqarorligidan dalolat beruvchi muhim omildir.**”

farzandlari yoki yaqin qarindoshlari bir umr aybdorlik hissi bilan yashab oʻtishga majbur edi. Ayniqsa, huquqni muhofaza qilish va nazorat organlariga, sudga ishga kirmoqchi boʻlganlarga qatʼiy qoida sifatida belgilangan edi. Bugungi kunga kelib “Otaning aybi – butun avlodning aybi” tushunchasi hukmronligiga chek qoʻyildi. Bu ham inson qadri va haq-huquqini hurmat qilish va taʼminlashga qaratilgan ulkan oʻzgarishlardan biridir.

Bevosita Prezidentimiz rahbarligida qonun ustuvorligi va adolatni quray toptirish borasida olib borilayotgan bunday qatʼiy saʼy-harakatlar ijtimoiy adolatga sadoqat namunasidir.

ochiq sud majlislarida koʻrilishi tartibi joriy etildi. 2025-yil yanvaridan tergov sudyalari faoliyati yoʻlga qoʻyildi.

Jismoniy va yuridik shaxslar oʻz huquq va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, buzilgan huquqlarini tiklash borasida, asosan, sudlarga murojaat etadi va ularning oʻz vaqtida, protsessual tartiblarga toʻla amal qilingan holda qonuniy va adolatli hal etilishi jamiyatda adolat barqarorligidan dalolat beruvchi muhim omildir.

Sudyaning ish boʻyicha chiqaradigan qarori inson taqdiri bilan bogʻliq boʻlib, toʻgʻri va adolatli qarorlar jamiyat tinchligi, osoyishtaligini taʼminlashga xizmat qilsa,

aksincha, adolatdan zarra chekingan holdagi har qanday qaror nafaqat ishi sudda koʻrilgan taraflar taqdiriga, balki butun jamiyatga salbiy taʼsir etadi. Odamlarning sudga va aloqibat mavjud tuzumga nisbatan ishonchsizligi va noroziligini keltirib chiqaradi.

Sudyalarni fuqarolik, jinoyat, maʼmuriy yoki iqtisodiy ishlarni koʻrishda ularning haqiqiy holatini aniqlashi va amaldagi qonunlar asosida huquqiy baho berishi, oʻz qarorining nafaqat qonuniy va asoslantirilganligiga, balki adolatlilikiga ham eʼtiborli boʻlishi shart. Ana shunda fuqarolarimiz jamiyatimizda adolat hukm surayotganiga toʻla ishonch hosil qiladi va sud chinakam adolat qoʻrgʻoniga aylanadi. Qaysi toifa ish boʻlmasin, agarda u qonuniy, asoslangan va adolatli tarzda hal etilsa, jabrlanuvchi hamda sudlanuvchi, daʼvogar va javobgarining haqi bir-birovida qolib ketmaydi va bu ham adolatning bir koʻrinishi boʻladi.

Sudyaning faoliyati inson taqdiri bilan bogʻliq. Shu maʼnoda, bu oʻta ogʻir va masʼuliyatli vazifa boʻlib, jamiyatda adolat qaror topishida, avvalo, sudyaning hayot tarzi, halol va pokligi muhimdir. Shuningdek, uning bilim saviyasi yuqori boʻlishi lozim. Davlatimiz rahbari mustaqil va professional sudyalarni korpusini tashkil etish masalasiga bejiz alohida eʼtibor qaratmayapti. Sudya qachonki mustaqil, bilim va tajribasi yetarli boʻlsa, shundagina u xolis boʻladi va qonun ustuvorligi taʼminlanadi.

Sudya – oʻz faoliyatini amalga oshirishda Oʻzbekiston Respublikasi nomidan ish koʻradi, aybi yoʻqni oqlaydi, aybi borga jazo tayinlaydi yoxud mol-mulk nizosini, oliyaviy kelishmovchilikni hal qiladi. Shu bois sudyalik vazifasini bajarish oʻta katta masʼuliyatni talab etadi. Sudyaning xato qilishga haqqi yoʻq, u har qanday ishni hal etishda oʻzini voyaga yetkazgan, bilim va martaba bergan xalqi hamda qonun oldidagi shaxsiy javobgarligi va masʼulligini doimo yodda tutishi zarur.

Xolmoʻmin YODGOROV,
Oʻzbekiston Respublikasi
Sudyalari oliy kengashi raisi,
Oʻzbekistonda xizmat koʻrsatgan
yurist.

EKSPORT UCHUN IMPORT QILINAYOTGAN PAXTA

Oʻzbekistonning jahon toʻqimachilik bozoridagi strategiyasi



Barcha imkoniyat xomashyoni yetishtirishdan tortib tayyor kiyim-kechak ishlab chiqarishgacha boʻlgan sanoat zanjirini toʻliq rivojlantirishga qaratilgan.

Shu bilan birga, bunday yutuqlar yangi vazifalarni ham yuzaga chiqarmoqda. Endilikda Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoati AQSH va Yevropa Ittifoqining premium bozorlarida oʻz oʻrnini mustahkamlashi lozim. Bu bozorlarda yuqori sifat standartlari, xomashyoning kelib chiqishini kuzatish imkoniyati (traceability) va ishlab chiqarishning ekologik barqarorligi muhim ahamiyatga ega. Bunday global brendlar talablariga mos kelish uchun faqat ichki imkoniyatlar yetarli boʻlmasligi mumkin. Shu sababli maxsus navli paxtani import qilish zarurati yuzaga kelmoqda.

Import – mahalliy ishlab chiqarish oʻrnini bosish uchun emas, balki qoʻshimcha imkoniyatlar ochish uchun zarur.

Koʻpchilikda savol tugʻiladi: agar mamlakatda paxta yetarli boʻlsa, nega uni import qilish kerak? Muhim jihati shundaki, import hech qachon mahalliy xomashyoni almashtirish uchun moʻljallanmagan. Aksincha, u faqat aniq buyurtmalarni bajarish uchun kerak boʻladigan joylarda uni toʻldiradi. Oʻzbekistonda har yili 1-1,5 mln. tonna paxta tolasi ishlab chiqariladi va bu hajmning barchasi allaqachon mahalliy fabrikalarda qayta ishlanadi. Boshqacha aytganda, mahalliy paxta toʻliq ichki ehtiyoj uchun ishlatilmoqda.

Bundan tashqari, soʻnggi yillarda mamlakatda koʻplab yangi toʻqimachilik korxonalari ishga tushirildi va ularning umumiy quvvati tez surʼatlarda oshmoqda. Natijada fabrikalarning oʻrtacha quvvatdan foydalanish darajasi hozircha 75 foiz atrofida. Bu esa tarmoqda foydalanilmagan quvvatlar mavjudligini anglatadi va ularni aynan qoʻshimcha xomashyo hisobiga ishga solish mumkin. Import qilinadigan paxta faqat yuqori sifat va sertifikatlashning xalqaro standartlari talab etiladigan ishlab chiqarish liniyalari va shartnomalarga yoʻnaltiriladi. Shunday qilib, tashqi bozordan paxta xaridi mahalliy fermerlarga raqobat tugʻdirmaydi (ularning mahsuloti allaqachon toʻliq isteʼmolda), balki sifatning yangi bosqichiga chiqish uchun maqsadli vosita vazifasini bajaradi.

Jahon yetakchilari tajribasi

Oʻz xomashyosini import bilan uygʻunlashtirish strategiyasi aslida yangilik emas, uni yetakchi toʻqimachilik davlatlari muvaffaqiyatli qoʻllab kelmoqda. Masalan, Turkiya, Bangladesh, Viyetnam, Hindiston, Indoneziya, Kambojda, Meksika va hatto Xitoy har yili AQSH, Braziliya, Avstraliya va Afrika davlatlaridan katta hajmda paxta import qiladi.

Nega ular bunday qiladi? Javob juda oddiy: oʻz yengil sanoatini global mijozlar talablariga javob beradigan sifatli xomashyo bilan taʼminlash uchun. Masalan, Turkiya katta hajmda paxta ishlab chiqaruvchi boʻlishga qaramay, yuqori sifatlari toʻlani baribir chetdan sotib oladi. Bu esa turk fabrikalariga

Yevropaning moda gigantlari bilan barqaror hamkorlik qilish imkonini beradi. Bangladesh esa deyarli paxta yetishtirmaydi, ammo butunlay import xomashyoga tayanib, dunyoda kiyim-kechak eksporti boʻyicha ikkinchi oʻrinda turadi. Viyetnam import paxtasi tufayli AQSH bozoriga eng yirik besh toʻqimachilik mahsulotlari yetkazib beruvchidan biriga aylandi, Turkiya esa Yevropa Ittifoqining tikuv mahsulotlari boʻyicha asosiy hamkorlaridan biri sifatida oʻz oʻrnini mustahkamlab oldi. Bu misollar shuni koʻrsatadiki, global moda bozorida muvaffaqiyat qozonish uchun mamlakat butun paxtani oʻzi ishlab chiqarishi shart emas. Eng muhimi, yakuniy buyurtmachiga talab qilingan sifat va yetkazib berish ishonchligini taqdim eta olishdir, hatto buning uchun xomashyoning bir qismini tashqi bozordan xarid qilishga toʻgʻri kelsa ham.

Bundan tashqari, muayyan navli paxtani import qilish orqali ushbu davlatlar oʻz mahsulotlarini qoʻshimcha qiymat beradigan maxsus yoriqlar bilan belgilash imkoniyatiga ega boʻladi. Jahon bozoringin premium segmentlariga chiqish strategiyasi doirasida Oʻzbekistonda amalga oshirilayotgan “Made with U.S. Cotton” tashabbusi xalqaro sifat talablari, kelib chiqishini kuzatish (traceability) va ekologik barqarorlik standartlariga mos mahsulot ishlab chiqarishga qaratilgan.

Amerika paxtasining afzalligi

Nega oʻzbek toʻqimachilari eʼtiborida aynan Amerika paxtasi boʻlmoqda? Gap shundaki, AQSHdan keladigan paxta tolasi barqaror yuqori sifati bilan mashhur boʻlib, “U.S. Cotton Trust Protocol” – yetkazib berish zanjirini standartlashtirish va kuzatishning zamonaviy tizimiga mos keladi. Sertifikatlangan Amerika xomashyosidan foydalanish yakuniy mahsulotni “Made with U.S. Cotton” degan nufuzli yoriqlar bilan belgilash huquqini beradi. Bir qator yirik brendlar uchun bu shunchaki marketing emas, balki hamkorlikning muhim shartidir. Masalan, “Levi’s”, “Ralph Lauren”, “PVM”, “Puma”, “Gap”, “Tesco” kabi kompaniyalar kolleksiyalarining bir qismi ushbu dasturga kiruvchi paxtadan tayyorlanishini talab etadi. Shunday qilib, Amerika paxtasining xaridi oʻzbek fabrikalariga ilgari imkon boʻlmagan global brendlar bilan shartnomalar tuzish yoʻlini ochadi.

Sotib olinadigan xomashyo dunyoga mashhur “Strict Middling” paxta navli hisoblanadi. Bu oʻziga xos xususiyatlarga ega yuqori darajadagi paxta navidir. Tolasi uzun va qalin, bir xil ochiq hamda toza ranglarda. Aynan shunday paxta koʻplab brendlarning premium kiyimlari uchun talab qilinadi. Uni har qanday xomashyodan olib boʻlmaydi, u maʼlum sharoitlarda yetishtirilgan va qayta ishlangan boʻlishi kerak. Jahon bozorida bu navning ishonchli yetkazib beruvchilari sifatida AQSH, qisman Avstraliya va Braziliya tan olingan. Oʻzbekiston uchun esa AQSHdan “Strict Middling” partiyasini import qilish milliy toʻqimachilik sanoati nufuzini oshirish va premium segmentga chiqish yoʻlidagi bevosita qadam hisoblanadi.

Moliyaviy jihatini ham alohida taʼkidlash lozim.

Amerika paxtasini xarid qilish AQSH Qishloq xoʻjaligi vazirligining “GSM-102” dasturi doirasida rejalashtirilmoqda. Bu kredit kafolatlari mexanizmi boʻlib, unga koʻra oʻzbek korxonalari xomashyoni 12 – 18 oygacha toʻlovni kechiktirish sharti bilan olishi mumkin. Amalda Amerika tomoni bitim summasing 98 foizigacha boʻlgan qismini sugʻurtalaydi va ishlab chiqaruvchilarga paxtadan foydalanish, keyin esa kelajakdagi eksport tushumidan qiymatini toʻlash imkonini beradi. Bunday sxema rivojlanayotgan bozorlar uchun foydali va moslashuvchan boʻlib, koʻplab mamlakatlar tomonidan qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini import qilishda keng qoʻllanadi. Oʻzbekiston uchun “GSM-102”da ishtirok etish kompaniyalar aylanma mablagʻlariga darhol yuklama tushirmasdan yuqori sifatli xomashyoga imtiyozli moliyaviy sharoitlardan foydalanishni anglatadi.

“Strict Middling” navini hozircha oʻzimizda yetishtirish imkoni yoʻq

Shu oʻrinda savol tugʻiladi: kerakli sifatdagi paxtani bevosita Oʻzbekiston dalarida yetishtirsa boʻlmaydimi? Afuski, yaqin yillarda “Strict Middling” darajasiga erishish qator obyektiv sabablar tufayli qiyin. Birinchidan, butun tarmoq ehtiyojini faqat mahalliy xomashyo hisobidan qoplash uchun paxta ekiladigan maydonlarni keskin kengaytirish va hosildorlikni sezilarli darajada oshirish zarur boʻladi. Bunday agroteknologik oʻzgarishlar tez amalga oshirilmaydi. Mutaxassislar bahosiga koʻra, bunga kamida 5 yil davomida tinimsiz mehnat kerak boʻladi.

Ikkinchidan va eng asosiysi, “Strict Middling” navi faqat muayyan tabiiy iqlim sharoitlarida hamda toʻlani qayta ishlash texnologiyalarida hosil boʻladi. Paxtaning sifati – uning pishiqligi, mustahkamligi, bir xilligi va rangi – bevosita iqlimga, quyosh nuri miqdoriga va hosil pishish hamda yigʻim-terim davridagi namlik darajasiga bogʻliq. Oʻzbekiston oʻrtacha navli paxta yetishtirish uchun qulay iqlimga ega, ammo eng yuqori nav uchun zarur sharoitlarni tabiatan taʼminlash qiyin.

Shu sababli, yaqin istiqbolga yuqori navli paxtani import qilish, xuddi shunday navni oʻzimizda yetishtirishga urinish bilan solishtirganda, ancha real va iqtisodiy jihatdan maqsadga muvofiq yechim hisoblanadi. Bu, albatta, mahalliy paxta navlarini yaxshilash va seleksiya boʻyicha uzoq muddatli dasturlarni bekor qilmaydi, ammo hozirgi bozordagi imkoniyatlarni boy bermaslikka yordam beradi.

Ishlab chiqaruvchilar uchun foyda

Oʻzbek toʻqimachilik korxonalari uchun import paxtadan foydalanish nafaqat sotuv hajmlarini, balki ishlab chiqarish jarayonini ham yangi bosqichga olib chiqadi. Yuqorida aytilgan kechiktirilgan toʻlov sxemasi (12 – 18 oy) doirasida xomashyo xaridi



fabrikalarga oʻz mablagʻlarini chalgʻitmasdan quvvatlarni ishga solish imkonini beradi. Oddiy aytganda, zavod sifatlari toʻlani oladi, darhol undan mahsulot ishlab chiqadi, eksport qiladi va faqat shundan soʻng tushgan tushumdan paxta uchun toʻlovni amalga oshiradi. Bu ishlab chiqarishni moliyalashtirish uchun juda qulay: eksport shartnomalaridan keladigan mablagʻlar aylanmasi hisobiga ketma-ket 2-3 ishlab chiqarish siklini bajarish imkoniyati paydo boʻladi.

Albatta, elita Amerika paxtasi oddiy xomashyoga qaraganda qimmatroq – uning narxi mahalliy paxtaga nisbatan qariyb 15 – 20 foiz yuqori. Ammo muhim jihati shundaki, uni barcha buyurtmalar uchun emas, faqat eng foydali, yuqori marjaga ega shartnomalar uchun sotib olinadi. Bunday hollarda xomashyo uchun qoʻshimcha xarajatlar tayyor mahsulotning yuqori narxi bilan oʻzini toʻliq oqlaydi. Aslida import oʻzbek fabrikalariga ilgari oʻtkazib yuborilgan global brendlar buyurtmalarini olish imkonini beradi. Shu bilan birga, mahalliy paxta asosidagi bazaviy ishlab chiqarish saqlanib qoladi – u ommaviy segment mahsulotlarining asosiy hajmini taʼminlaydi.

Shuni ham alohida qayd etish kerakki, “GSM-102” kabi importni moliyalashtirish sxemalari korxonalarni bozor xavflaridan himoya qiladi. AQSH hukumati kafolatlari toʻlovsi qolish mumkin boʻlgan holatlarning katta qismini qoplaydi, uzoq muddatli toʻlov esa narx va talab tebranishlarini yumshatadi. Natijada oʻzbek ishlab chiqaruvchilari ish rejalarini qoʻrqmasdan tuza oladi, shartnomalarini bajarish uchun zarur xomashyoga ega boʻlishini biladi va shunga moslashib, pul oqimlarini boshqaradi. Bularning barchasi paxta importini majburiy choradan puxta oʻylangan biznes qaroriga aylantiradi.

Global imij va integratsiya

Oʻzbekiston toʻqimachilik sanoatining jahon bozoringin premium segmentlariga chiqishi faqat alohida fabrikalar darajasida emas, balki mamlakat miqyosida ham foyda keltiradi. Gap Oʻzbekistonning sifatlari mahsulot yetkazib beruvchi ishonchli hamkor sifatidagi xalqaro imijini mustahkamlash haqida ketmoqda. Agar “Made with U.S. Cotton” yoriqligʻiga ega oʻzbek mahsulotlari AQSH va Yevropa Ittifoqi doʻkonlarida paydo boʻlsa, bu boshqa global chakana savdo tarmoqlari va distribyutorlarning

ishonchini oshiradi. Allaqachon “GSP+” imtiyozlarini olish Yevropa Ittifoqi kabi murakkab bozorlar uchun Oʻzbekiston toʻqimachilik eksportini oshirishga imkon berdi. Qisqa vaqt ichida YEIga eksport hajmi taxminan 74 mln. dollardan 140 mln. dollarga oʻsdi. Amerika hamkorlari bilan ishlash esa AQSH bozoriga chiqishda ham xuddi shunday ijobiy natija berishi mumkin.

Strategik jihatdan bunday qadam mamlakatning global taʼminot zanjirlariga integratsiyalashishiga yordam beradi. Oʻzbekiston soʻnggi yillardagi islohotlar, paxta yigʻim-terimida majburiy mehnatdan voz kechilishi va biznes muhitining yaxshilanishi tufayli jahon toʻqimachilik sanoati xaritasida tobora sezilarli oʻrin egallamoqda. Yuqori sifatlari xomashyo importi va xalqaro barqarorlik protokollariga (masalan, “U.S. Cotton Trust Protocol”) rioya qilish Oʻzbekiston toʻqimachilik sektorini zamonaviy, masʼuliyatli biznes yurituvchi oʻyinchi ekanligini tasdiqlovchi yana bir dalil boʻladi. Bu yangi investorlar va buyurtmalarni jalb etadi: mamlakat asta-sekin global brendlar ishlab chiqarishni joylashtirishi va uning samaradorligi hamda standartlarga mosligiga ishonch hosil qilishi mumkin boʻlgan mintaqaviy “sourcing-hub”ga aylanadi.

Xullas, kiyim-kechak eksportchilarining oldingi qatorlarda boʻlishi Oʻzbekistonning eksport obroʻsi yuksalishiga olib keladi. Bu esa logistika va dizaynga ham ijobiy taʼsir koʻrsatadi. “Nike” yoki “H&M” kabi brendlar uchun yetkazib beruvchi boʻlish – bu “yuqori liga”da oʻynash, demakdir va bunday darajadagi reklama juda katta ahamiyatga ega. Shu tariqa Oʻzbekiston iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish boʻyicha davlat ustuvor yoʻnalishlariga mos ravishda xomashyoga bogʻliq boʻlmagan eksportning uzoq muddatli oʻsishi uchun poydevor yaratmoqda.

Oʻylangan qadam – kelajakka sarmoya

Xulosa oʻrnida aytganda, rejalashtirilgan paxta importini majburiy choradan koʻra rivojlanishning puxta oʻylangan strategiyasi sifatida koʻrish kerak. Bu orqali mamlakat toʻqimachilik sanoatini yangi bosqichga olib chiqish uchun zarur resurslarga ega boʻladi – premium segmentlarga chiqish, texnologik darajani oshirish va qimmat buyurtmalarni jalb etish imkonini beradi. Bu jarayonda mahalliy ishlab chiqaruvchilar zarar koʻrmaydi, aksincha, yangi imkoniyatlar va quvvatlarining toʻliq ishtatilisidan foyda koʻradi.

Umuman, yuqori sifatli paxta tolasi importi – bu Oʻzbekistonning jahon moda sanoatidagi mavqegini mustahkamlash va eksport salohiyatini oshirishga qaratilgan pragmatik qadam. Boshqacha aytganda, Oʻzbekiston sifat va obroʻga investitsiya qilmoqda. Bu esa, albatta, oʻz samarasini beradigan sarmoyadir.

Inomjon ABDURAHMONOV,
Investitsiyalar, sanoat va savdo
vazirligining
Tashqi savdo departamenti rahbari.

Bizning suhbat

Milliy mentalitetimizning asosiy xususiyatlaridan biri – bu vatanparvarlikni shaxsiy narsadan ustun qoʻyish istagi: millat sifatida har qanday tahdidlarga duch kelganimizda, biz doim birlashganmiz, oʻzligimizni namoyon etganmiz. Bunga tarixiy misollar koʻp.

Uzoqqa bormasdan jadid bobolarimizni olaylik: xalqning maʼnaviy uygʻoqligi va maʼrifati uchun oʻz hisobidan maktablar qurdi. Yoki otasining

azasiga borishga taqiq qoʻyilgan davrlarda ham millat vakillari oʻz ildizlari, mentalitetini saqlab qoldi. Bunday refleksivlik, asosan, oʻzbeklarga xosmi yoki boshqa xalqlar ham oʻzlarining milliy xarakteri haqida oʻylashadimi?

Taniqli yozuvchi va jurnalist, filologiya fanlari doktori, professor Xurshid DOʻSTMUHAMMAD bilan millatning gʻoyalari va ideallarini belgilaydigan milliy mentalitet hamda qadriyatlar haqida suhbatlashdik.



INSONIY NEKBINLIK MOHIYATI

– Mentalitet nihoyatda muhim, hamisha dolzarb va gʻoyatda serqirra mavzu. Uni har kim oʻzicha talqin qilishi mumkin, – deydi suhbatdoshimiz Xurshid Doʻstmuhammad. – Toʻgʻri, vatanparvarlik tuygʻusi milliy mentalitetimizning oʻzak tomirini tashkil etadi. Uni milliylikimizning umurtqasiga qiyoslasak ham yangilishmaymiz. Siz ikkita misolni tilga oldingiz. Akademik Azamat Ziyoning “Oʻzbek davlatchiligi tarixi” asari yozuv stolimda turadi. Imkonii topildi deguncha, uni varaqlayman. Miloddan avvalgi 1-ming yillikdan boshlangan, jami 3 ming yillik diyorimiz, xalqimiz tarixi ixcham bir shaklda qamrab olingan. Voqealar silsilasini oʻylab oʻyingizga sigʻdirolmay siz, qatʼiy bir toʻxtam yoki xulosaga kelish shu qadar qiyinki, uning qiyinligi va murakkabligi ham, umumlashtirib aytganda, vatanparvarlik tuygʻusiga borib taqaladi. Kim kimga qarshi jangga oltanmasin, “Men ota yurtim, ona zaminim uchun kurashmoqdaman!” degan ishonch va eʼtiqod-lila qilich yalangʻochlagan. Eng ayancli joyi xalqimiz tarixi, asosan, oʻzga yurtlarni istilo qilish – zabt etish emas (Amir Temur davrini istisno etganda), oʻz yurtini muhofaza qilishdan iborat. Vatanparvarlik tuygʻusining tarixiy shakllangani boisi ham shunda. Oʻzaro qirgʻinlarda esa asl vatanparvarlik qay tomondan aniqlash mushkul, lekin har qanday mahalliy qirgʻinbarot pirovard oqibatda Vatan manfaatiga putur yetkazgan muqarrar.

Jadidlar harakati mohiyatini vatanparvarlik, millatparvarlik gʻoyalari tashkil etdi, toʻgʻri, lekin shunday ulugʻ harakat uzoqqa bormadi, lekin samara koʻrmay, yoʻqlikka yuz tutdi. Savodxonlik istagi jinoyatga teng koʻrildi. Shu oʻrinda juda haqli va nozik savol tugʻilmoqda, biz, avlodlarni chuqur mulohazaga undamodda: jadidlar harakati xalqimiz, millatimiz mentalitetiga nima berdi? Milliy mentalitetimizni boyitdimi, mustahkamladimi? Prezidentimiz tashabbusi bilan uchinchi Uygʻonish orzusi jadid bobolarimiz saʼy-harakatini qayta anglashdan boshlanayotgani mohiyatida qanchalar chuqur maʼno-mazmun mujassamligi keng zamondoshlar ommasini qoʻya turaylik, ziyoli afkor omma tomonidan nechogʻli toʻgʻri idrok etilmoqda?

Men shu kabi savollar ayni palladagi kechiktirib boʻlmas maʼnaviy-maʼrifiy muammolarimizga chambarchas bogʻlanib ketmogʻi zarurligini nazarda tutmoqdaman. “Moziyga qarab ish tutmoq”ga hech kim qarshi emas, ammo hozirgi hayot oldimizga qoʻyayotgan muammolar milliy, tafakkuriy, fikriy va tahliiy salohiyatimiz imkoniyatlaridan bir necha oʻn (ehtimol, yuz!) karra kattaligi nihoyatda jiddiy tashvishlantirmogʻi zarur. Davr, umr oʻtaveradi, hech bir kuch uning etagidan tutib qololmaydi, lekin hamma gap qanday oʻtishida, nechogʻli omilkorlik, aql-zakovat bilan oʻtishida. Inson davr shamoyillari oʻyinchoigʻiga-qurboniga aylanmasin, balki davr va umr mashmashalarini oʻziga boʻysundira bilsin, insoniy nekbinlik mohiyati shunda!

2017-yildan mamlakatimizda boshlangan keng koʻlamdagi inqilobiy islohotlar dunyo miyosidagi global evtlilishlar jarayoniga qoʻshilib chatishib ketdi. Bashariyat (shu jumladan, Oʻzbekiston xalqi) misli koʻrilgan chorahalar oldida yoʻl tanlashga majbur boʻlmoqda. Chorrahalarda esa hayot aql bovar qilmaydigan shiddat bilan kechmoqda, u tezlik gʻoyatda betoqat, besabr, shafqatsiz va murosasiz. Taniqli amerikalik futurist olim Elvin Toffler oʻtgan asrning 60-yillarida chop etilgan tadqiqotlarida insoniyat dahshatli evtlilishlar pallasiga kirib kelayotganini bashorat qilgan, buni “Kelajak talvasasi” asarida batafsil bayon etgan. Buning uchun oʻz vaqtida olimni mubolagʻavozlikda ayblaganlar ham boʻlgan. Oqibat-chi? Bir soʻz bilan aytganda, Toffler bashorat qilgan talvasa keltirib chiqaruvchi vahmor voqea-hodisalar bizning zamondoshlarimiz koʻz oʻngida roʻy bermogda!

– Masalan?..

– Masalan, biz azal-azaldan milliy qadriyatlar, chunonchi, udumlar, urf-odatlari, tushunchalarga ikki qoʻllab tarmashgan xalqimiz. Bunday holatni milliy fazilat maqomiga koʻtarganmiz. Globalashuv va sunʼiy intellekt zamoni oʻzgarishlari esa, istaymizmi-yoʻqmi, bizning bir qoʻlimizdan tortib, tamomila boshqa iqlimlarga olib qochmogda. Buning ustiga, xalqimiz shu qadar “migratsiyabop” – jahongashga chiqib qoldiki, asti qoʻyaverasiz! Umumlashtirib aytganda, bir qoʻlimiz milliy, ikkinchi qoʻlimiz umumbashariy qadriyatlar, tushunchalar, qiziqishlar tomon choʻzilgan. Boshqa chora yoʻq, biroq xuddi shu nuqtada kelib chiqayotgan ruhiy, hissiy, ijtimoiy, maʼnaviy-axloqiy va boshqa-

boshqa zoʻriqish hamda bosimlarni kimdir bilib-anglagan holda, kimdir bilmay-anglab yetmagan zaylda, uning mushkulliklariga dosh berib yashamoqda. “Dosh berib”ni istagancha talqin etish mumkin. Bizning odamlar uchun xos boʻlmagan, koʻz koʻrib-quloq eshitmagan jinoyatlar ham ana oʻsha “dosh berib”ning ichida. Bilmadim, mutaxassislar tahlil qilishadimi-qilishmaydimi, fikrimcha, oʻta ogʻir jinoyatga qoʻl urganlarning oʻzlari ham oʻz qilmishlarini tushuntirib berolmaydilar. Chunki hozirgi jinoyatlarning ildizi boshqa tomonlarda.

Hammaga tanish, aniq misol keltiraylik. Bir necha yillardan buyon mamlakatimizda koʻcha harakati muammolarini bartaraf etish ogʻir kechmoqda. Eng katta muammo – avtomashina va piyoda yoʻlovchilar munosabatidagi nomutanosiblik. Uning turli sabablari oʻrganilmoqda, choralar ishlab chiqilmoqda, lekin natija, samara deyarli koʻrinmayapti. Sababi fikri ojizimcha, avtomashina va piyoda yoʻlovchilar munosabatidagi nomutanosiblik hozirgina yuqorida aytganim ikki oʻt orasidagi psixologik bosim oqibatlaridan biri. Toʻgʻridan-toʻgʻri mentalitet masalasi bu.

– Qanday qilib?

– Xususiy yengil avtoulav koʻpaydano-koʻpaydi, bu yangilik va yengillik avtoulavdan malakali foydalanish madaniyatini taqozo etadi. Son-sanoqsiz haydovchilarimiz esa bu qulaylikka savod, malaka borasida tayyor emas. Haydovchi tayyorlash tizimi mutlaqo yaroqsiz. Bu yetmaganay, koʻchada harakatlanuvchi piyoda yoʻlovchilar ham amaldagi qonun-qoidalarga mukammal rioya qilmaydi. Yoʻl harakatini yoʻlga qoʻyish tizimlari ham mazkur yangilikka toʻla shay emas. Aytmoqchimanki, koʻcha harakati madaniyati bamisoli katta bir fan, ilm, alohida yoʻnalish darajasiga

“Taʼsirchanlikning eng sinalgan usuli – kitob, badiiy adabiyot, ilmiy adabiyot! Bizning zamonga kelib, odamzod oʻzi oʻtirgan shoxga arra tortmoqda. Ishonch bilan aytaman, katta adabiyot, katta isteʼdod va mahorat bilan yozilgan badiiy asarlar kurrai zaminimiz, bepoyon osmonimiz, zamon va zamondoshlarimiz taqdiri bilan oʻynashayotgan vallomatlarni tartibga chaqiradi, hushyorlikka undaydi, ularni dunyoga va odamzodga ezgu nigoh bilan qarashga daʼvat etadi! Zero, odamning koʻziga tik qarab turib, “Sen – insonsan!” deya uqdirishga faqat va faqat adabiyot, badiiy soʻz qodir!

koʻtarilmogʻi zarur bir paytda soha oʻzini oʻnglolmaydiganga oʻxshayapti. Vaholanki, bu boradagi yangiliklarni ommalashtirish, keng omma ongiga, tushunchasiga muttasil yetkaza borish mutlaqo oʻzgacha-yangicha tizim yaratishni, joʻn qilib aytganda, yalpi savodsizlikka barham berishni taqozo etmoqda.

– Savodsizlikka barham berishning birgina yoʻli – bu maʼnaviyat. Bizda maʼnaviyat moddiyatga emas, ruhiy komillikka intilgan. Pragmatizm koʻpincha qoralangan. Milliy tafakkurimiz tasavvufga asoslangani bois vijdonga qarshi borilmagan. Insonparvarlikning yuksak namunasini koʻrsatgan Shohmahmudovlar oilasini olaylik, Ikkinchi jahon urushi davrida turli millatga mansub qarovsiz va yetim qolgan 13 nafar, urushdan soʻng yana 3 bolani oʻz tarbiyasiga olishgan. Buni tarixda qolish uchun emas, chin yurakdan qilgan. Agar yana biror muammo yuzaga kelsa, oʻzbeklar millatidan qatʼi nazar, butun dunyoga yordam berishni istagan. Shundan haligacha bizning davlatimiz koʻp millatli, turli madaniyatlarga hurmat va bir-birligi muhabbat saqlanib qolgan. Biroq bugungi globalashuv barcha insonlar mahrajini yoʻqotib, faqat suratni qoldirishga zoʻr bermogda. Yoʻlchi, Obid ketmon, Oʻzbekoyimlardagi milliy xarakter zamonaviy oʻzbeklarda uchramayapti. Sizingcha, bugun qadriyatlarimizni qay darajada qayta koʻrib chiqishga ehtiyoj sezilmoqda?

– Yoʻq, xalqona-milliy qadriyatlar qayta koʻrib chiqiladigan muammo emas, u oʻz holicha, yashash va fikrlash tarziga qarab goh sekin, goh shiddat bilan oʻzgaruvchan hodisa, jarayon. Milliy qadriyatlarga real hayot tarzi sayqal beradi, maromga keltiradi, toblaydi. Bizda bu jarayon gʻoyatda sust kechadi.

Bizda alohida taʼlimot darajasiga koʻtarila borayotgan “Maʼnaviyat-maʼrifat” tushunchasi mohiyatini tashkil etgan maʼno-

mazmun, maqsad-muddao, muammoyu iddaolar Toffler taʼlimoti magʻziga yaqin. “Maʼnaviyat-maʼrifat”ning qudratli kuchiga, uning yengilmasligiga koʻproq urgʻu beramiz, bunda biz milliy qadriyatlarimizga ishonamiz, oʻtmishimiz bezagiga aylangan bir qator misollarni qayta-qayta tilga olishdan charchamaymiz. Bu oʻrinda tasavvufni qoʻya turaylik, lekin diniy eʼtiqod taʼsirida boʻlsa kerak, milliy tiynatimizda mazlumga, ehtiyojmandga beminnat yordam qoʻlini choʻzishga moyillik bor. Shu bilan bir vaqtda savol tugʻilmoqda: nima uchun bugun odamlarimizda Yoʻlchi, Obid ketmon, Oʻzbekoyimdagi milliy feʼl-atvor uchramasligidan ranjimogʻimiz kerak? Siz tilga olgan har uchala ism XX asr oʻzbek adabiyotining oʻziga xos badiiy obrazlari sifatida tarixda qoladi, bunga shubha yoʻq, biroq ular keng kitobxonlar ommasiga, xususan, yoshlarimizga ibrat-etalon boʻlolmaydi. “Oʻtkan kunlar”ni eslaylik. Margʻilonda, Ziy shohichining xonadonidagi mehmondorchilikda Otabek Shamayga borganidan soʻz ochiladi. “Rus shaharlariga borib, savdo qiluvchilar Turkistonda juda oz hisobda boʻlib, ularni koʻrgan Otabek majlisga tansiqlandi”. Yaʼni Otabek dunyo koʻrgan-yurt koʻrgan odam sifatida yonidagilaridan bir bosh yuqoriladi. “Bizning idoramiz, – deydi u oʻychanlik bilan, – bugungi tartibsizligi bilan keta bersa, holimizning nima boʻlishiga aqlim yetmay qoldi”.

Qodiriy hazratlari Otabek timsolida dunyo kezgan inson nazari bilan mahalliy hayot tarzini oʻxshatib taftish etmoqda. Ayrim adabiyotshunos doʻstlarimiz ushbu holat taʼsirida tugʻilgan hayrat hayajonida Ziy shohichi va Mirzakarim qutidor darajasida qolib ketishlari ajablantiradi odamni. Vaholanki, Otabekning Shamay (Semipalatinsk shahri) taassurotlariga berilishi taʼsirida biz

qilmagan Shiroq ham suveren ongning yorqin namunasidir. Aytinch, “suveren ong” haqida sentyabrda taʼlim maskanlarida bir-ikki soat oʻtilayotgan “Vatanshunoslik”, “Mustaqillik kuni” darslari... Yoki mustaqillik maydonlari, Adiblar xiyobonidagi qahramonlar haykali toʻliq tushuncha bera oladimi? Bu boradagi taʼsirchanlikni oshirish uchun qanday taklif-tavsiyalar ayta olasiz?

– Avvalo, men xorijda yashamayman. Menga hech kim 15 – 20 ta savol bilan murojaat etganicha ham yoʻq. Soʻzni muxtasar qilsak, vatanparvarlik, mustaqillik va hokazo muqaddas tuygʻularni targʻib qilishdagi almisodqan qolgan shakllardan, vositalardan voz kechmoq kerak. Bu boradagi soxtakorliklar, jimjimalar aks taʼsir koʻrsatadi, koʻrsatmoqda ham. Sohobqironning siz eslagan bagʻoyat yoqimli soʻzini koʻp takrorlaymiz. Lekin savol tugʻiladi: qanday jamiyatda “Kuch – adolatda” qaror topadi? Nazarimda, oʻsha davrning mirzolari, jurnalistu bogʻlari Temur boboga bunday savol bilan murojaat qilishga botina olishmagan...

“Suveren ong” suveren shaxsda kamol topadi. Hozirgi turmush tarzi shaxslashuv uchun ayni muddao, buyuk Uygʻonishga ham favqulodda shaxslarsiz erishilmaydi, faqat bu borada ham “soatbay”, “tadbirbay” tantanavozliklardan voz kechilmayotgani ajablantiradi odamni.

Har ishda targʻibot kerak, lekin targʻibot uslubii yangilanmogʻi shart. Bilasizmi, targʻibot – qanchalar targʻibot ekanligi sezilmasa, shuncha koʻp samara beradi. Aks holda...

Taʼsirchanlikning eng sinalgan usuli – kitob, badiiy adabiyot, ilmiy adabiyot! Bizning zamonga kelib, odamzod oʻzi oʻtirgan shoxga arra tortmoqda. Ishonch bilan aytaman, katta adabiyot, katta isteʼdod va mahorat bilan yozilgan badiiy asarlar kurrai zaminimiz, bepoyon osmonimiz, zamon va zamondoshlarimiz taqdiri bilan oʻynashayotgan vallomatlarni tartibga chaqiradi, hushyorlikka undaydi, ularni dunyoga va odamzodga ezgu nigoh bilan qarashga daʼvat etadi! Zero, odamning koʻziga tik qarab turib, “Sen – insonsan!” deya uqdirishga faqat va faqat adabiyot, badiiy soʻz qodir!

– Siz “Sof oʻzbekcha qotillik”, “Jajman”, “Bozor” kabi asarlariningda oʻzbek xarakteri, ruhi va dunyosini ochishni qoyillatgansiz. Maqolalarigizda esa xalqimiz tiynatida ortiqcha dabbabalarga moyillik borligidan kuyinib yozasiz. Aytinch, oʻzbekchilik boshqa xalqlardan nimasi bilan farq qiladi? Chunki bu soʻzning boshqa tillarda aniq muqobilii yoʻq. Oʻzbekchilik oʻzi nima? Bunday tushuncha haqida boshqa xalqlar qanday oʻylaydi?

– Qarang, miloddan avvalgi VII-VI asrlarda Xorazmda sunʼiy sugʻorish tizimlari ishlab turgan. Ijtimoiy tabaqalar shakllangan. VIII-VII asrlarda shahar madaniyatiga asos solingan. Joʻn gaplar emas bular. Aqlga-tasavvurga sigʻdirish mahol deng! Taassuflar boʻlsinki, olis tarzi bizning xalqimizda uzluksiz taraqqiyot, uzluksiz yuksalish, uzluksiz va davomli barqarorlikni ravo koʻrmadi. Sogʻlom va puxta mentalitet esa barqaror muhitda vujudga keladi, shakllanadi, ulgʻayadi. Xalqimiz nihoyatda ijtimoiy barqarorlikka muhtoj. Koʻr-koʻrinda dabbabaga moyillik Temur bobolar, xonlilar davridan meros. “Mehmondoʻst millat” ekanligimiz koʻp tilga olinadi, men millatimiz tiynati haqida soʻz ochilsa, mehmatkash, halol, madaniyatli, ziyoli, ilmparvar, insof-eʼtiqodli, mulohazali, uddaburon va ahil-inoq xalq deya nom qozonishini juda-juda orzu qilaman.

– Xurshid aka, maʼnaviyat va qadriyatlarga, anʼanalarga tahdidlar kundan-kunga koʻpayib bormogda. Najot nimada deb oʻylaysiz?

– Hozir odamzod qavmi erta tongdan koʻzini ochib-ochmay qanday qilib jon saqlash tashvishida bosh qotirmogda. Biror tirik jon, kimligidan qatʼi nazar, favqulodda tajovuzdan kafolatlanmagan. “Falon mintaqadagi ikki qoʻshni davlat kelisholmay turibdi, uning bizga daxli yoʻq” deydiyan zamonlar oʻtdi-ketdi. Biz esa davlatimiz rahbari daldasida uchunchi Uygʻonish choʻqqisini koʻzlamogdamiz. Bu – olamshumul nekbinlik, olamshumul dadillik! Bu nekbinlik va dadillik toʻlqiniga, albatta, uygʻoqlik yarashadi. Bu maqsad-muddao yoʻlida barcha-barcha imkoniyatdan samarali va oqilona foydalana bilishdan oʻzga chora yoʻq, deb oʻylayman.

Najot – yangi zamon odamlarining ongi, tafakkuri, intilishidagi foydali harakat ulushini yagona kuch-quvvat sifatida amaliyotga tatbiq eta bilishimizda!

Suhbatdosh: Adiba UMIROVA (“Xalq soʻzi”).

Ibrat

YAPONIYALIK KELIN TASHABBUSI

Ishtixonga kelin boʻlib tushgan Kanaa xonim hozirgi kunda oilasi bilan Samarqand shahrida istiqomat qiladi. U Samarqand tumanidagi Mirishkor mahallasida yashovchi 20 ta kambagʻal oila ayollariga hamyon tikishni oʻrgatdi.

– Ayollar bu hunarni tez oʻzlashtirib olishdi, ularga xomashyoni oʻzim yetkazib berib, tayyor hamyonni 20 ming soʻmdan sotib olyapman, – deydi Kanaa xonim. – Quvonarlisi, mahsulotni Yaponiyaga eksport qilyapmiz. Har bir oila kuniga 10 tadan hamyon tikishini hisobga olsak, ularning oylik daromadi 5-6 million soʻmni tashkil etmoqda.

Kanaa xonim faqat bu bilan kifoyalanib qolayotgani yoʻq. Samarqand tumanidan yana 150 – 200 ta oilani ishli qilish boʻyicha yangi loyiha ustida ishlamoqda.

Bunday ibratga loyiq tashabbusni Urgut tumanidagi Xoʻjaguzar mahallasida yashovchi qoʻlguil kashtachi Mavluda Hamdamova ham qoʻllab-quvvatlamogda. Eʼtiborlisi, Mavluda Xoʻjaguzar va uning atrofidagi 6 ta mahalladagi 100 nafardan ortiq ishsiz ayollarga kashta tikishni oʻrgatayotir.

U kashta tikish uchun ketadigan barcha xomashyoni kasanachilarga oʻzi yetkazib berib, tayyor mahsulotni oʻrtacha 1,5-2 million soʻmdan sotib olmoqda. Bu xayrli ish hunar egalariga oyiga 4-5 million soʻm atrofida daromad keltiryapti. Ammo tan olish kerak, Kanaa xonim va Mavluda kabi tashabbuskor ayollar hamma mahallalarda ham uchramaydi. Shunday ayollarni izlab topish, ragʻbatlantirish, imtiyoz va imkoniyatlarini kengaytirish uchun viloyatda “Kambagʻallikdan farovonlik sari” dasturi jadal amalga oshirilmogda. Bu loyihadan koʻzlangan maqsad yil yakuniga qadar 35,6 mingta oilani kambagʻallikdan chiqarishga qaratilgan.

Bugungi kunda Samarqand viloyati hokimligi hamda barcha shahar va tumanlarda hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlatirishga qaratilgan “Islohotlar shtabi” faoliyati yoʻlga qoʻyildi. Mazkur shtabda Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan vazifalardan kelib chiqib, 4 ta ustuvor yoʻnalish boʻyicha “mahalla yettilligi” bilan birgalikda chora-tadbirlar rejasi belgilab olingan.

– Mahallalarda xatlov oʻtkazilib, 17,3 ming nafar ishsiz fuqaroning manzilli roʻyxati shakllantirildi, – deydi viloyat hokimining birinchi oʻrinbosari kotibiyati mudiri Rivojiddin Mahqulov. – Ular bilan toʻrt tomonlama (tuman hokimi, mahalla raisi, mahalla banki va fuqaro) shartnomalar imzolandi. 2025-yil yakuniga qadar 17,3 ming nafar ishsiz fuqaro, 57 ming nafar mehnat bozoriga kirib kelayotgan yigit-qiz, 11,6 ming nafar mehnat bozoridagi tarkibiy oʻzgarishlar orqali kirib keladigan fuqaro hamda migratsiyadan qaytishi kutilayotgan 21 ming nafar odamning bandligini taʼminlash boʻyicha alohida dastur ishlab chiqilgan. Umuman, yil yakuniga qadar yana 150 ming nafar aholi ishli boʻladi.



Joylardagi “mahalla yettilligi” aʼzolari bilan birgalikda 147 mingta oila bilan qayta soʻrovnoma oʻtkazilib, 80,3 mingta oila (aʼzolari 337,2 ming nafar) kambagʻallik reestriga kiritildi va har biri boʻyicha alohida reja ishlab chiqildi.

Xullas, viloyatda mahalliy dasturlar ijrosiga masʼul boʻlgan “Islohotlar shtabi” faoliyati jadallik bilan davom etmoqda. Aholini tadbirkorlikka jalb qilish, shu orqali ishsizlikni kamaytirish va pirovardida kambagʻallikni qisqartirishga yoʻnatirilgan faoliyat, albatta, oʻzining samarasini beradi.

Abdulaziz YOʻLDOSHEV (“Xalq soʻzi”).

QALBLARDA QUVONCH VA HAYAJON

OLIIY TA'LIM MUASSASALARIGA KIRISH BO'YICHA IMTIHON
NATIJALARI E'LON QILINDI

Kecha oliy ta'limga kirish niyatida imtihon topshirgan yoshlarimiz uchun quvonch va hayajonga to'la, bir umr esda qolarli kun bo'lgani, shubhasiz. Boisi, 2025/2026 o'quv yili uchun oliy o'quv yurtlarining bakalavriat ta'lim yo'nalishlariga kirish test sinovlari bo'yicha natijalari e'lon qilindi.

Abituriyentlar natijalarini uch usulda: pasport seriyasi va raqami hamda shaxsiy identifikatsiya raqamini kiritish orqali "my.uzmb.uz", ID raqamini kiritish yo'li bilan "mandat.uzmb.uz" platformalaridan, shuningdek, oliy ta'lim muassasalariga taqdim etilgan test natijalari qaydnomasidan bilib oldi.



Akmal MUHAMMADOV olgan surat.

“Abituriyent – 2025”

Siddiqdildon qilingan mehnatlar hech qachon besamar ketgan emas. Tinimsiz o'qib, izlangan, bilimli yigit-qizlar, albatta, talabalik sharafiga muyassar bo'ldi. Ta'lim olishda erinchoqlik, quntsizlik qilgan ayrim yoshlar esa aksincha... Ular o'ziga yarasha tajriba to'pladi va zarur xulosalar chiqardi.

Joriy yil oliy ta'lim dargohlariga o'qishga kirish uchun 671 ming 397 nafar abituriyent ro'yxatdan o'tgan bo'lib, ularning 63 foizdan ortig'i maktab, litsey va texnikumlarining joriy yilgi bitiruvchilari hisoblanadi.

2025/2026 o'quv yilida O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalari bakalavriatining kunduzgi ta'lim shakliga qabul uchun 148 400 ta kvota ajratilgan. Kechki ta'limga esa

28 732 ta. Masofaviy ta'lim shakli uchun 18 195 ta o'rin berilgan. Bu raqamlar ertangi kunga umid bilan boqqan shuncha insonlar, ularning yaqinlari qalbida, xonadonida katta xursandchilik bo'lganidan dalolat.

Quvonarlari yana bir statistika: bu yil 826 nafar abituriyent maksimal darajada – 189 ball to'pladi. Yuz foizlik natijali Yangi O'zbekiston yoshlarining bilimga chanoqliqligi va yuksak quvvai hofizasining nishonasi bu. To'g'ri, maksimal ball to'plashda xalqaro va milliy sertifikatlarining tan olinishi ham katta rol o'ynagan. Ammo o'sha sertifikatlarni olishning ham o'zi bo'lmagan. Ularni ham yetarli darajada salohiyati bor abituriyent qo'lga kiritgan.

– O'g'lim Samandar O'zbekiston Respublikasi Jamoat xavfsizligi universitetiga o'qishga qabul qilindi, – deydi jizzaxlik Faxriddin Xudoyberdiyev. – Oilamizda chinakam bayram bo'ldi. Bu – mamlakatimizda yoshlarga berilayotgan cheksiz imkoniyatlar mevasi. Ilohim, har bir ota-ona farzandining baxtu kamolini ko'rib yursin!

Bu yilgi oliy ta'limga qabul jarayonlari xotin-qizlar uchun ham alohida voqelik bo'ldi. Chunki bir necha yildan buyon ehtiyojmand xotin-qizlar uchun tavsiyanoma asosida berib kelinayotgan imtiyozli 2 mingta grant kvotasi joriy yilda Prezident farmoyishiga muvofiq ikki barobar ko'paytirilgan

holda, 4 mingta etib belgilandi. Bu oliy ta'lim olmoqchi bo'lgan opa-singillarimizni behad shod qilgani aniq.

– Tanlagan beshta yo'nalishimda ham o'qishga kiribman, – deydi poytaxtlik Xurshidabonu Norboyeva. – Albatta, ulardan faqat bittasida ta'lim olishim mumkin. Shu bois men Toshkent arxitektura-qurilish universitetida o'qishga qaror qildim.

Yana bir ma'lumot. Talabalik baxtiga erishgan yoshlar test sinovlari adolati, shaffof tarzda o'tganini e'tirof etmoqda. Ammo imtihon natijalaridan qoniqmagani, norozi bo'lganlar ham uchrashi tabiiy. Shu bois bugundan natijalardan norozi abituriyentlardan apellyatsiya arizasini qabul qilish boshlandi. Ular o'z arizalarini "my.uzmb.uz" saytida (shaxsiy kabineti orqali) onlayn tarzda 15-avgustdan 24-avgustga qadar berishlari mumkin. Apellyatsiya arizasini bergan abituriyentga uni ko'rib chiqish sanasi va vaqti ko'rsatilgan xabarnoma beriladi. Abituriyent xabarnomada belgilangan vaqtda shaxsini tasdiqlovchi hujjat va xabarnoma bilan Bilim va malakalarni baholash agentligiga (yoki xabarnomada belgilangan joyga) kelishi kerak.

Apellyatsiya shikoyatlarini ko'rib chiqish 2025-yil 21-avgustdan boshlanadi. Demak, qaynoq yozning haroratlari hayajonlari hali davom etadi.

Dilshod KARIMOV
("Xalq so'zi").

Ofarin!

BITIRUVCHILARNING
BARCHASI TALABA

Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabi bitiruvchilarining 20 nafari davlat granti va 16 nafari to'lov-shartnoma asosida nufuzli oliy ta'lim dargohlariga o'qishga qabul qilindi.

Xususan, ular Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zbekiston Milliy universiteti, O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti, Jahon iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti, O'zbekiston Jurnalistika va ommaviy kommunikatsiyalar universiteti hamda Guliston davlat universiteti kabi oliy ta'lim muassasalari talabasi bo'ldi.

– *Omad bilimlilarga kulib boqadi, deyishgani rost ekan, – deydi O'zbekiston Milliy universitetining jurnalistika fakultetiga o'qishga qabul qilingan Matluba Shakarova. – Test juda shaffof va haqqoniy tarzda o'tdi. Bilim va mahorat o'z so'zini aytdi. Men otashin shoira Halima Xudoyberdiyeva nomidagi ijod maktabida tahsil olib, nufuzli universitet talabasi bo'lganimdan xursandman.*

Eslatib o'tamiz, mazkur ijod maktabining 3 nafar o'quvchisi muddatidan oldin Malayziya, AQSH, Latviya davlatlarining xalqaro universitetlariga grant asosida o'qishga qabul qilingan edi.

Ahmadali ShERNAZAROV
("Xalq so'zi").

Achchiq, ammo ochiq gaplar

Orzu-havasli, bolajon xalqmiz. Farzandimiz dunyoga kelishi bilan qo'ni-qo'shni, yor-birodarlarimizga dasturxon yozish g'amida bo'lamiz. Urf-odatlarimizni ado etish niyatida yelib-yuguramiz. Bir so'z bilan aytgach, to'y qilib, el oldidan o'tayin deymiz. Bundan maqsad-muddao – farzandga baxt-iqbol tilab, el duosini olish. Ammo... oramizda shunday kimsalar ham borki, "Falonchi zo'r to'y berdi" degan gap xudbin ko'ngliga xush yoqadi. Go'yoki to'ydan maqsad dabdabayu as'asa, to'kin dasturxonini ko'z-ko'z qilish...

Afsuski, bugungi to'ylar o'z mazmun-mohiyatidan uzoqlashib, ko'z-ko'z qilnadigan, iqtisodiy zo'rliqlik va ijtimoiy tengsizlikni chiqaruvchi vositaga aylanib bormoqda. To'ylardagi ortiqcha dabdaba, marosimlar va ijtimoiy tengsizliklar oilalarni moliyaviy inqirozga duchor qilmoqda. Va ayniqsa, yoshlarning ongida dabdababozlikka moyillikni shakllantirmoqda.

Aslida to'y – bir oilaning shodligi va ikki yoshning yangi hayotga qadam qo'yish marosimi. Uni o'z tabiiy va ma'naviy mohiyatida saqlash, ortiqcha as'asa va dabdabalardan voz kechish – har bir insonning, jamiyatning manfaatiga xizmat qiladi.

Ijtimoiy reyting va soxta obro' kimga kerak?

O'chig'ini aytganda, mamlakatimizdagi har bir hududning, hatto har bir qishloqning to'y bilan bog'liq o'ziga xos an'analari, urf-odatlar bor. Masalan, Toshkent va Samarqand shaharlarida o'tkaziladigan to'y marosimlari tobora dabdabali tus olmoqda. Bu yerdagi isrofgarchilik orzu-havas emas, balki ma'naviy bilimning yetishmasligi ifodasidir, desak, xato bo'lmaydi. Serhasham to'yxonalardagi to'kin dasturxonlar, falon so'mlik qalin puli va kuyovdan talab qilinadigan turli shartlar hayot me'yorlariga soya solayotgan holatlardir. Bu shov-shuvar aslida muhabbat va mehrga emas, balki ijtimoiy reyting va obro' orttirishga qaratilgan bachkana chiranishdir. Natijada to'ydan keyingi hayot to'grisidagi fikrlar ikkinchi o'ranga tushib qolmoqda.

Bugungi kunda ba'zi oilalarda to'y xarajatlari ularning yillik daromadidan ikki-uch barobar oshib ketadi. Shu bois to'y qilayotganlarning yarmidan ko'pi banklardan kredit olishga to'g'ri kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, ayrim joylarda hali-hanuz qalin puli, mazar

OILA BAXTI
DABDABADA EMAS

eltish, salom puli kabi udumlar saqlanib qolgan. Bu na kuyovga, na kelinga yengillik olib keladi. Aksincha, to'y sababli qarzga botgan oilalarda ma'naviy tushkunlik, yoshlar orasida esa norozilik kayfiyati paydo bo'lmoqda. Umidsizlik, yoshlikdagi ishonchsizlik ularni nafaqat iqtisodiy, balki ruhiy jihatdan ham tanglikka olib kelyapti.

keksalarimiz an'analarni to'liq rad etish emas, balki ularni qayta shakllantirish, ma'naviy mazmuniga sodiq qolgan holda iqtisodiy jihatdan yengillashtirish tarafdori bo'lib bormoqda. Zamonaviy, ixcham, samimiy muhitda o'tkaziladigan to'ylar jamiyat uchun ijobiy xislatdir.

“Bugungi kunda ba'zi oilalarda to'y xarajatlari ularning yillik daromadidan ikki-uch barobar oshib ketadi. Shu bois to'y qilayotganlarning yarmidan ko'pi banklardan kredit olishiga to'g'ri kelmoqda. Shunday bo'lsa-da, ayrim joylarda hali-hanuz kalin puli, mazar eltish, salom puli kabi udumlar saqlanib qolgan. Bu na kuyovga, na kelinga yengillik olib keladi. Aksincha, to'y sababli qarzga botgan oilalarda ma'naviy tushkunlik, yoshlar orasida esa norozilik kayfiyati paydo bo'lmoqda. Umidsizlik, yoshlikdagi ishonchsizlik ularni nafaqat iqtisodiy, balki ruhiy jihatdan ham tanglikka olib kelyapti.

To'g'ri, har qanday an'ana millatning tarixiy xotirasi va madaniy belgisi hisoblanadi. Qalin puli, mazar eltish kabi urf-odatlar ham o'z davrida ma'naviy va ijtimoiy vazifalarni bajargan bo'lishi mumkin. Lekin ularni o'zgartirmasdan, o'zgarib borayotgan jamiyatga moslashtirmasdan saqlash, nafaqat iqtisodiy muammolar, balki odamlar orasida tengsizlikni ham kuchaytirishi turgan gap. Shu bois hayot tajribasiga ega

Albatta, bunda yoshlarning ijtimoiy tafakkuridagi o'zgarishlar juda muhim ahamiyat kasb etadi.

“To'y xarajatini kamaytirib, yangi uyga to'lov qildik...”

Ixcham to'y – bu nafaqat kuyov va kelinning quvonchi, balki jamiyatning ma'naviy ifodasi. Agar to'y marosimlari qayta ma'no kasb eta boshlasa, ular insonlar orasidagi samimiylarni tiklashga xizmat qiladi.

Bu jarayonda asosiy vazifa – ziyolilar, ulamolar, mahalla faollari va OAV orqali jamoatchilik ongini o'zgartirish. Oila qurish marosimida insonlar bir-birining qalbiga quloq tutsin, nafs va obro' uchun emas, muhabbat va e'tibor uchun yig'ilsin. To'y jamoaviy mas'uliyat degani hamdir. Chunki to'y bu ota-ona, mahalla, hamjamiyatning ham ma'naviy birlashuv nuqtasi. Agar to'yni shunga yarasha isloh qilsak, nafaqat iqtisodiy barqarorlik, balki madaniy sog'lomlashuvga ham erishamiz.

– Xalqimizda maslahatli to'y tarqamas degan ajoyib naql bor, – deydi Qo'rg'ontepa tumaniida istiqomat qiluvchi Saydullo Fazliddinov. – Shu ma'noda, bizga o'g'limiz ibrat bo'ldi, desam, ko'pchilik ajablanishi mumkin. Xabaringiz bo'lsa, bizda kelin tomon to'ydan avval kichik mazar yuboradi. Unda besh-o'nta savatda yemak-ichmak va sovg'a-salomlar bo'ladi. U orqali biz qo'ni-qo'shnilarga to'ydan darak beramiz. To'ydan bir kun oldin katta mazar olamiz. Bunda 30 – 40 ta savatda salatdan tortib to'pshiriqqacha yuboriladi. Bu bilan kuyovning jo'ralari mehmon qilinadi. To'ydan keyin yana 40 kun mazar tashladi.

Qarangki, o'g'lim shu odatlarning barchasiga nuqta qo'ydi. “Shu iltimosimga rozi bo'lsangiz uylanaman, bo'lmasa yo'q”, dedi u. Undagi qat'iyat oldida o'zimdand uyalib ketdim. Shu bois men ham ota sifatida o'zim bilan bog'liq katta bir marosimga nuqta qo'ydim. Ya'ni fотиha to'yiga! Odatda to'ydan avval

kuyov tomondan 10 – 15 nafar erkak kelinlikiga borib, mehmon bo'lib kelishadi. Ziyofat shu qadar quyuq bo'ladiki, xarajati qariyb to'y bazmidan qolishmaydi. Kelin tomonga “Fotiha to'yiga bormaymiz, kutmanglar” dedim. Mening bu qarorimdan ayolim har qancha hayratlanmasin, u ham o'g'limizga munosib bo'lgisi keldi. U ham ayollar bilan bog'liq udumlarini rad etdi.

Xullas, to'y kuni ertalab erkaklarga osh berdik. Shu kuni tushga yaqin ayollarni mehmon qildik. To'yning ertasi kuni o'g'limiz jo'ralarini to'plab, choyxonada osh berdi. To'ydan iqtisod qilingan pulga o'zina qo'shib, kelin-kuyov uchun uyning boshlang'ich to'lovini amalga oshirdik...

Ha, to'y o'zini ko'z-ko'z qilish emas, balki ertangi hayot uchun muhim poydevor vazifasini o'tashi kerak. Kimlarningdir orzu-havasini deb kecha uylangan kuyov kelinini tashlab uzoq xorijda ishlash, qarz uzishi qaysi orzu-havas mezonlariga to'g'ri keladi? Modomiki, farzandlarimizning baxti kelajagi uchun mas'ul ekanmiz, bu borada muhim va kerakli hamda foydali qaror qabul qilish vaqti keldi. Aytmoqchi bo'lganimiz, to'ylarimiz ertasida kimo'zarlik musobaqasi emas, balki farzandlarimizning ahil, tinch-totuv oilasi, muqaddas nikohi mujassam bo'lsin!

Siz nima deysiz, aziz gazetxon?

Saminjon HUSANOV
("Xalq so'zi").

BUNI HAYOT DEYDILAR...

Hisobli dunyo ekan. Insonning har bir amali, ertami-kechmi, albatta, o'z bahosini, ajrini topadi. Yaxshilik ham, yomonlik ham izzsiz ketmasligining hayotiy isbotini har birimiz ko'rganmiz, eshitganmiz. Mushtariylarimiz yo'llagan quyidagi voqealar bayoni barchamizni fikrlashga, diqqat-e'tiborli bo'lishga undaydi.

QASSOBNING
KASOFATI

Bu voqeaga ancha yil bo'lib qoldi. Mahallamizda Ismat qassob degan kishi yashardi. Qassoblik unga ota kasb. Nusrat ota ham uzoq yillar shu kasb bilan shug'ullangan. U so'yib do'konga chiqargan go'shtni xaridorlar hamisha ishonch bilan xarid qilardi. Chunki Nusrat otaning halolligiga, taqvdorligiga hamma ishonardi.

Biroq o'g'li... biroq noinsofligi, tarozidan urib qolishi, xaridorlarni aldashini ko'pchilik bilardi. Kunlarning birida Ismat qassob mashinasida uyga qaytayotib, yo'lni kesib o'tayotgan bir qo'yni urib yuboradi. Endi juftakni rostlamog'chi bo'lganida qo'yning egasi kelib qoladi va qassobning yo'lini to'sadi. Qassob shartta tushib, qo'yning bo'g'ziga pichoq tortadi. Ammo bu paytda jonivorning joni uzilib bo'lgandi. Qo'yning egasi “Pulini to'laysan”, deb turib oladi. Qassob tortisha-tortisha qo'yning pulini to'laydi, ammo jonivorning o'ligini ko'chaga tashlab ketishga ko'zi qiymaydi.

“Buni uydagi iltarimga nimtalab beraman, terisini sotaman”, deb qo'yni mashinaning yuxkonasiga bosadi. Qassob shuncha pulga kuyib qolishni istamasdi. Kushxonaga opkirib, qo'yning terisini shilib, saranjomlaydi. Go'shtni nimtalab, sotishga tayyorlaydi.

Shu payt otasi kelib, go'shtni ko'zdan kechiradi. Qassob emasmi, go'shtga bir qarab, uning harom qotgan qo'yniki ekanini anglaydi.

– Bu o'lgan qo'yning go'shtini nima qilmoqchisan? – so'raydi u o'g'lidan.

– Buni? Shunchaki terisini shilib oldim, go'shtini jarga oborib tashlayman, daydi iltar yeb ketadi.

Biroq nafs hakalak otgan Ismat qassob ertasigayiq otasining ko'zini sham'alat qilib, go'shtni pullab yuboradi. Ota bundan bexabar qoladi. Shu tariqa oradan bir necha oy o'tadi. Qassob og'ir kasallikka chalindi. Badanini allaqanday yara-chaqa bosib ketgan ekan. Hech qanday dori davo bo'lmadi. Kundan-kunga qassobning dardi og'irlashdi.

Behtiyor esiga o'tga kungi voqea tushdi-da, o'g'lidan bu haqda so'radi. O'g'li esa bosh chayqab, harom go'shtni sotib yuborganini ma'lum qildi.

...Ismat qassob o'nglanmadi. Noma'lum dard uni bir haftada ado qildi. Harom qotgan qo'y bilan bog'liq hodisa esa hamon odamlarning og'zidan tushmaydi.

Dilmurod SAFAROV.
Buxoro viloyati, Romitan tumani

XUDO BILAR KIM OLDIN
KETAR...

Bu voqeaga o'n yildan oshdi. Ishxonamizda Shorahim aka degan hisobchi ishlardi. O'zining qo'pol hazillari bilan ko'pchilikning g'ashiga tegib yurardi. Kunlarning birida tashkilotimizning kadrlar bo'limi boshlig'i qizini uzatib, Toshkent markazidagi to'yxonada osh berdi. To'yga ilgari bizda ishlash ketganlarni ham chaqiribdi. Ancha yillar avval pensiyaga chiqib ketgan qorovul Inog'om ota ham kelib, hammamiz bilan so'rashib chiqdi. Biz bilan bir stolda o'tirdi.

Hamma joylashib olgach Shorahim aka bizga ko'z qisib, o'ta xoksor, chumoligacha ham ozor bermaydigan Inog'om otaga luqma tashladi:

– E, Inog'om ota, sizni allaqachon naryoqqa jo'navorgan deb yurgandik. Qarang, odam o'lmasa, yuraverarkan-da, ha-ha-ha!

Uning bu sovuq haziliga o'zidan boshqa hech kim kulmadi. Inog'om ota ham go'yo haliyam tirik yurgani uchun xijolat bo'layotgandek davraning bir chetida o'tirardi. Davraga noqulay jimlik cho'kdi. Shu payt osh tortildi-yu, kimdir gapni burib yubordi:

– Qani, osh ham keldi, to'rdan uzatinglar, ha barakalla. Inog'om ota, endi o'zingiz boshlab berasiz-da, a?

To'yxonadan chiqarkanmiz, ikki-uch kishi Shorahimga dakk bergan bo'ldi:

– E, suf sizga, bechora cholni nega mulzam qilasis? Xudo bergan umrini yashaydi-da!

– E, man institutni bitirib ishga kelganimda ham bu chol hoziridek munkillab yurardi. O'shangayam yigirma yil bo'ldi. Rosti, ko'rib hayron qoldim. Odamzod uchun yashash joniga tegmas ekan-da!

Odamlar “bunga gap kor qilmaydi” degandek, ters burilib ketishdi.

Tasodifmi, yo Yaratganning irodasi bilanmi, oradan olti oy o'tar-o'tmas Inog'om ota bilan yana uchrashib qoldik. Bu gal to'ydamas, Shorahim akaning janozasida... Soppa-sog' yurgan odam uch kun tobi qochib yotib qolibdi-yu, bandalikni bajo keltiribdi.

Inog'om ota boshiga eskirgan duxoba do'ppisini bostirib olgan, marhumning yaqinlariga ta'ziya izhor qilardi:

– Bandalik ekan. Juda yaxshi, kamsuqum yigit edi. Alloh rahmat qilsin...

O'ktam ILYOSOV.
Toshkent shahri

Mamlakatimizda kecha boshlangan “Silk Road to Tokyo WA Continental Tour Bronze” xalqaro musobaqasi 18-avgustda yakunlanadi.

Xalq so'zi
Narodnoe slovo

MUASSISLAR:
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Qonunchilik palatasi Kengashi
O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi
Senati Kengashi

Bosh muharrir O'tkir RAHMAT

2020-yil 25-martda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligida 0001-raqam bilan ro'yxatga olingan. Nashr indeksi — 229. Buyurtma G 642. 13 107 nusxada bosildi. Hajmi — 3 taqoq. O'fset usulida bosilgan. Qog'o'z bichimi A-2. Bahosi kelishilgan narxda.

Gazetamiz haqidagi ma'lumotlarni yuklab olish uchun QR-kodni telefoningiz orqali skaner qiling.

TELEFONLAR:
Devonxona 71-259-74-51; kotibiyat 71-259-74-53;
e'lonlar 71-259-74-55.

Tahriyrga kelgan qo'lyozmalar taqzir qilinmaydi va mulkligiga qaytarilmaydi.

Gazetaning yetkazib berilishi uchun olmanu rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.

Gazeta tahriyriyat kompyuter markazida terildi hamda operator M. Begnuratov tomonidan sahifalandi.

Gazetaning poligrafik jihatdan sifati chop etilishiga "Sharq" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi mas'ul. Bosmaxona telefoni: 71-233-11-07.

MANZILIMIZ:
100066,
Toshkent shahri,
Islom Karimov ko'chasi, 55-uy.
Navbatchi muharrir A. Aliqulov.
Musahhih Sh. Mashrabboyev.

“Sharq” nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi. Korxona manzili:
Buyuk Turon ko'chasi, 41. O'ZA yakuni — 00.00 Topshirildi — 00.35 **1 2 3 4 5 6**